

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
RAHMATULLAYEV SHAROFIDDIN NEMATULLAYEVICHning**

“O‘ZBEK TILIDA PUBLITSISTIK USLUB”

mavzusidagi

*5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishida magistr akademik
darajasini olish uchun yozgan*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2015-2016- o‘quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent
QILICHEV B.E.**

Buxoro – 2016

“Ma’qullayman” _____
Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent B. E. Qilichev
“ ” _____ 2014-y.

“Tasdiqlayman” _____
O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri Sh.N.Ahmedova
“ ” _____ 2014-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Rahmatullayev Sharofiddin**
Nematullayevichning “O‘zbek tilida publitsistik uslub” mavzusidagi magistrlik dissretatsiyasi
ustida olib borishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	2014-yil, sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	2014-yil, oktabr-dekabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	2015-yil, yanvar		
MD ustida ishlash	1. MD rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	2015-yil, fevral-mart		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	2015-yil, aprel-iyul		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	2015-yil, avgust-noyabr		
	4. III bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	2015-yil, dekabr-2016-yil, fevral		
	5. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	2016-yil, mart		
	6. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	2016-yil, aprel		
	7. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
MDni rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	2016-yil, may		
	MDni himoya qilish	2016-yil, iyun		

Bitiruvchi kurs magistranti
Ilmiy rahbar

Rahmatullayev Sharofiddin
Qilichev Bayramali

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Fakultet dekani _____ A.A.Haydarov

“_____” _____ 2016-y.

BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
RAHMATULLAYEV SHAROFIDDIN NEMATULLAYEVICHning

“O‘ZBEK TILIDA PUBLITSISTIK USLUB”

mavzusidagi

*5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishida magistr akademik
darajasini olish uchun yozgan*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2015-2016- o‘quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent
QILICHEV B. E.

Rasmiy hakamlar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent
AHMEDOV A. R.
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
QURBONOVA G.N.

Buxoro – 2016

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining –yig‘ilishi bayonnomasidan
KO‘CHIRMA

_____, 2014-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
A‘zolari

K U N T A R T I B I

***Magistrlik dissertatsiyalari mavzularining muhokamasi, tasdig‘i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.***

Kafedra qaror qiladi:

5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti Sulaymonova Mehrinisoning magistrlik dissertatsiyasi mavzusi **“O‘zbek tilida publitsistik uslub”** shaklida tasdiqlansin.

5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti Rahmatullayev Sharofiddinning magistrlik dissertatsiyasiga f.f.nomzodi, dotsent Bayramali Qilichev ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig'ilish raisi
Yig'ilish kotibasi

Sh.N.Ahmedova
G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 13-yig'ilishi bayonnomasidan
KO'CHIRMA

26-may, 2016-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a'zolari

K U N T A R T I B I

5A 120102 – Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi magistranti
Rahmatullayev Sharofiddinning “O'zbek tilida publitsistik uslub”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

5A 120102 – Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi magistranti Rahmatullayev Sharofiddinning “O'zbek tilida publitsistik uslub” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi “sinov himoyasidan o'tdi” deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga ichki taqrizchi etib kafedra dotsenti, filologiya fanlari nomzodi A. R. Ahmedov hamda tashqi taqrizchi etib Buxoro tibbiyot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi G.N.Qurbonova tayinlansin.

Yig'ilish raisi
Yig'ilish kotibasi

Sh.N.Ahmedova
G.Y.Samandarova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Filologiya **Magistratura talabasi:** Rahmatullayev Sh. N.
Kafedra: O‘zbek tili va adabiyoti **Ilmiy rahbar:** f.f.n. dotsent Qilichev B. E.
O‘quv yili: 2014-2016 **Mutaxassisligi:** 5A 120102 –
Lingvistika (O‘zbek tilshunosligi)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi va asoslanishi. Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining oynasi va eng muhim axborot yetkazuvchi vositasi hisoblanadi. Mustaqillik, matbuotimizga ham son, ham sifat jihatidan o‘zgarishlar qilishga, yangicha taraqqiyot omillarini belgilashga imkon berdi. Shu bilan birga, xolis, haqqoniy, tezkor, mazmunli axborot yetkazib berish manbai sifatida matbuotning o‘rni va roli, aynan, istiqlol yillarida yanada mustahkamlandi.

Qilaversa, Istiqlolning dastlabki yillarida ommaviy axborot vositalarining jamiyatda tutgan o‘rni, jurnalistlarning mavqei, kelgusidagi vazifalari haqida Prezident Islom Karimovning bir qator asarlarida, jurnalistlar bilan uchrashuvlarida aniq belgilab berildi.

Gazeta tili, leksikasi muammolarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Matbuot materiallari yozma manba sifatida o‘zbek adabiy tili rivojini o‘rganish va baholash, adabiy til imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning boyligini namoyish qilish, tildan targ‘ibot-tashviqot vositasi sifatida foydalanish, savodxonlikni oshirish singari jabhalarda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, publitsistik uslub orqali omma bilan doimiy muloqot olib boriladi va u ommaga tezkor axborot berish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy

leksikadan faol foydalanish, soʻzlashuv uslubiga intilish publitsistikaga xos xususiyatdir. Ommaviy axborot vositalarining oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, ularning tili va uslubi ham muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalarida gazeta janrlari imkoniyatlaridan toʻla foydalanish, materiallarning janriy rang-barangligini taʼminlash, axborotlarni aniq, xolis, taʼsirchan shakllarda yetkazish, tildan foydalanish mahoratini tinmay oshirib borish sohalarida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Aksariyat materiallarning saviyasi, maʼlum janr talablariga mosligi eʼtiborni tortadi. Yuqorida bayon qilinganlar tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiyaning maqsadi yurtimizda mustaqillik yillarida nashr etilayotgan ayrim gazeta materiallarining meʼyor va uslub xususiyatlarini oʻrganish, publitsistik uslubning leksik, grammatik xususiyatlari hamda ocherk, feleton kabi janrlarning leksik, grammatik xususiyatlarini tahlil etishdan iboradir.

Ilmiy tadqiqotda quyidagilarni oʻrganish vazifa qilib belgilangan:

- oʻzbek adabiy tili meʼyorlarini tadqiq qilish;
- uslub va uning turlarini oʻrganish;
- soʻnggi yillarda publitsistik uslubning til imkoniyatlarini oʻrganish;
- publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyatini mustaqillik davri gazeta materiallari misolida oʻrganish;
- publitsistik uslubning gazeta tili misolida leksik xususiyatlarini tadqiq etish;
- publitsistik uslubning gazeta tili misolida morfologik xususiyatlarini tadqiq etish;
- ocherk janrining oʻziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish va ushbu oʻziga xoslikni taʼminlovchi lisoniy birliklarni tahlil qilish;
- feleton janrining oʻziga xos xususiyatlarini yoritish;

Tadqiqot obʼekti va predmeti. Mustaqillik davri gazeta materiallarining tili, leksik morfologik xususiyatlarini oʻrganishdan iborat. Shu bilan birga, publitsistik uslubning janriy xususiyatlarini tadqiq qilishdan iboratdir.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik falsafaning umumiylik-xususiylik munosabatlariga oid qonun-qoidolari, tabiat, jamiyat va tafakkur elementlarining o‘zaro sistem munosabatda ekanligi haqidagi ta’limoti tashkil qiladi. Ushbu ishda an’anaviy va sistem tilshunoslikning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, sintezlash kabi metodlaridan foydalanildi. Ishda metodologik asos sifatida o‘zbek tilshunosligining fundamental tadqiqotlari va leksik, morfologik tahlillarning ilmiy-nazariy muammolari aks ettirilgan boshqa manbalar, darslik va qo‘llanmalardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy rahbarimiz B.Qilichevning ilmiy risola, monografiya, doktorlik dissertatsiyasi materiallari hamda metodik tavsiyalari ham ushbu ishning yaratilishida asos bo‘lib xizmat qildi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunosligimizda publitsistik uslubning til xususiyatlarini o‘rganilishda jiddiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, gazeta tilining lingvostilistik xususiyatlari, gazeta tili va adabiy norma, gazeta janrlarining tili va uslubi, gazeta matnlarida nutq madaniyati kabi masalalar K. Yusupov, A. Boboyeva, I. Toshaliyev, M. Xudoyqulov, S. Muhamedov, T. Qurbonov, A. Abdusaidov, D. Teshaboyeva kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Keyingi yillarda matbuot tili leksikasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ancha kuchaydi. Har bir xalqning eng asosiy ma’naviy boyliklaridan biri uning tilidir. Tilning asosiy materiali so‘zdir. Tildagi barcha so‘zlar lug‘at tarkibini tashkil etib, ushbu so‘zlar matbuot tili leksikasi orqali xalqqa tarqaladi. Xususan, gazeta tilini atroflicha o‘rganish, adabiy til xususiyatlarini tadqiq etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Tilshunoslik sohasida bizgacha ko‘plab ilmiy ishlar qilingan. Mazkur dissertatsiyamizning yangiligi shundaki, unda publitsistik uslubning, jumladan, gazeta tilining mustaqillik davri matbuotida yoritilayotgan turli materiallarning leksik, morfologik xususiyatlarining farqli jihatlarini o‘rganildi. Shu bilan birga, publitsistik uslubda

uchraydigan janrlarning leksik, morfologik xususiyatlarining yangi qirralari tadqiq qilindi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishning umumiy tavsifi, uchta asosiy bob, foydalanilgan adabiyotlar, xulosa qismlaridan iborat bo‘lib, 85 sahifani tashkil qiladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Ishning mazmuni yuzasidan 4 ta maqola chop ettirildi. Bular:

1. “Publitsistik uslubda o‘zlashgan so‘zlar” // “O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 15-16 aprel 2015- yil. 315-b

2. “Ocherkning leksik xususiyatlari” // “Filologiya masalalari” “Hayrat va talqin” turkumidan an’anaviy to‘plam. – T.: “Navro‘z”, 2016-yil. 147-b.

3. “Zulfiya ijodida publitsistikaning o‘rni” “Tafakkur va talqin” magistrilar ilmiy to‘plami. Buxoro – 2015-yil

4. “Uslub va uning turlari” “Filologiya masalalari” “Hayrat va talqin” turkumidan an’anaviy to‘plam. – T.: “Navro‘z”, 2015-yil.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi. Ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalar mustaqillik davrida nashr etilayotgan gazeta materiallariga asoslangan. Mazkur ishimizda publitsistik uslubning leksik-grammatik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga uning kundalik hayotimizdagi ahamiyati qanchalar muhimligi kabi xususiyatlar o‘rganilmoqda. Shu bilan birga mazkur uslubning o‘rganilishining yana bir muhim jihati, bu uslubning vazifasi, ifoda materiali, ommaga qaratilganlik xususiyati ishimizning o‘quvchi diqqatini tortuvchi jihatlaridan biridir.

Ilmiy rahbar:

Qilivhev B.E.

Magistratura talabasi:

Rahmatullayev SH.N.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

Faculty: philology	Student of MD level: Rahmatullayev Sh. N.
Department:uzbek language and literature	scientific supervisor: f.f.n. dotsent Qilichev B. E
Academic years: 2014-2016	Speciality: 5A120102-linguistics (Uzbek)

ANNOTATION OF MASTER DEGREE DISSERTATION

Actuality of research work. Present age is called the age of information. And [mass media](#) are the powerful and the most effective instruments of spreading or sharing information. Media do not simply provide people with information, news and ideas but also raise various issue on socio-econo-political matters.

Independence gives us to do better of our press not only at their quality but also at their numeral achievements. Besides, the role of mass-media in society, importance of journalists and their duties in future are concretized by Prezident Islom Karimov's works and in several meetings.

It is important to learn language of news –papers, and to analyze their lexical problems. In today's world of globalization, in Uzbekistan the impact and influence of mass media is more than ever and all pervasive. Media keeps us dated about what is happening around the world. Media focus on various social evils, polotical or economic crises and guide people through them. Today [right to](#)

[information](#) is recognized as one of the fundamental rights of people, and media ensure this right.

The aim and tasks of the dissertation. The aim of this dissertation work is to study standard features of news-papers and magazines, to analyze lexical grammatical peculiarities of public methods, and the genre ocherks, pelotons

Investigation work aimed to learn this tasks:

- To investigate standards Uzbek literary language;
- To study methods and its types ;
- To learn language achievements of publicity methods in contemporary years;
- To give samples from magazines and newspapers;
- To investigate morphological peculiarities of publicity method;
- To clear up genre of peloton

The object and subject of the dissertation. To investigate lexical and morphological peculiarities of news paper materials which is printed in the years of independence.

Method and methodology of the dissertation. The methodological basis of work is rules and attitudes of dialectic philosophy. In this work traditional and systematic linguistics is compared, analyzed and given to use. As well as, manuals, scientific works, monographs of our scientific supervisor B.Khilichev are made as a methodological base.

Degree studiedness of the work. There are several achievements in learning publicity methods in our linguistics. As an example, linguistic peculiarities of news papers language, literary standards of them and other matters are given by this scientists K. Yusupov, A. Boboyeva, I. Toshaliyev, M. Khudoyqulov, S. Muhamedov, T. Kurbonov, A. Abdusaidov, D. Teshaboyeva etc.

The novelty of the dissertation. Ther are a lot of scientific works till us the novelty is that to study standart features of news-papers and magazines, to analyze lexical grammatical peculiarities of public methods, and the genre ocherks , pelotons.

The structure of the work. This master's dissertation consists of introduction, 3 chapters, the list of used literature and conclusion.

Scientific supervisor _____ Kilivhev B.E.

Student of master's degree Rahmatullayev SH.N.

**Magistrant Rahmatullayev Sharofiddin Ne'matullayevichning
5A120102 – Lingvistika (o'zbek tilshunosligi) mutaxassisligi magistranti
akademik darajasini olish uchun yozgan
“O'zbek tilida publitsistik uslub” mavzusidagi
dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

O'zbek tili nutq madaniyatida uslublar o'ziga xos o'rin tutadi. Nutq uslublari deganda, til boyliklarini tanlab ishlatishga ko'ra nutq ko'rinishlari tushuniladi. Badiiy uslub badiiy ijod namunalari uchun xoslangan bo'lsa, so'zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xoslangan. Ommaviy axborot vositalari uchun esa publitsistik uslub fikr bayon qilish shakli sanaladi. Bu uslub o'zida ham so'zlashuv, ham ilmiy, ham rasmiy va badiiy uslub ko'rinishlarini ifodalay oladi. Chunki unda jamiyat hayoti bilan bog'liq holatlar aks etadi.

Magistrant Sh.Rahmatullayevning ushbu dissertatsiyasi o'zbek tilining publitsistik uslubi tahliliga bag'ishlangan.

Dissertatsiya ishning umumiy tavsifi, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 85 sahifani tashkil etadi.

Ishning umumiy tavsifida tanlangan mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, maqsad va vazifalari, obykti va materiali hamda ilmiy yangiligi kabilar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi “Til va uslub muammosi” deb nomlangan. Bu bob ikki qismdan tashkil topgan. 1-qismda tildagi me’yor va uslub masalasi yoritilgan. Unda o‘zbek adabiy tilining me’yorlari, ularning qamrov doirasi hamda uslub tushunchalari muhokama etilgan.

Mazkur bobning 2-qismi “Uslub va uning turlari” deb nomlangan. Bu qismda o‘zbek tilining nutq uslublari birma-bir tavsiflab berilgan. Bunda har bir uslub uchun xos tushunchalar, ularning lisoniy o‘ziga xosliklari, faol qo‘llanadigan so‘z shakllari tushuntirilgan.

“Publitsistik uslub va uning o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan 2-bob ham ikki qismdan iborat. Bobning 1-qismi publitsistik uslubning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan. Bu qismda publitsistik uslub bo‘yicha bajarilgan ilmiy ishlar – dissertatsiya, monografiya hamda ilmiy maqolalar o‘rganilgan.

Bobning “Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyati” deb nomlangan 2-qismida o‘rganilayotgan uslubning kundalik turmushimizdagi o‘rni masalasi yoritilgan.

“Publitsistik uslubning leksik-grammatik xususiyatlari” deb nomlangan 3-bobda asosan gazeta tiliga xos bo‘lgan leksik va grammatik holatlar o‘rganilgan. Bunda gazeta tilida faol qo‘llanadigan so‘z shakllari va grammatik unsurlar respublika va mahalliy matbuot nashrlaridan olingan misollar asosida izohlangan.

Ish xulosalar bilan yakunlangan. Xulosalar ish davomida olib borilgan tahlillarni o‘zida aks ettirgan.

Dissertatsiya yakunlangan. Me’yoriy hujjatlar asosidagi mavjud talablarga javob beradi. Uni rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

B.Qilichev

**BuxDU magistranti Rahmatullayev Sharofiddin Ne'matullayevichning
5A120102 – Lingvistika (o'zbek tilshunosligi) mutaxassisligi magistranti
akademik darajasini olish uchun yozgan
“O'zbek tilida publitsistik uslub” mavzusidagi
dissertatsiyasiga rasmiy hakam**

TAQRIZI

O'zbek tilidagi nutq uslublarini o'rganish har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Sababi, tilning barcha jihatlari nutq uslublarida namoyon bo'ladi. Jumladan, publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari hamda matbuot tilida qo'llaniladigan til birliklarini o'zida mujassamlashtiradi. Publitsistik uslubning materiali ommaga mo'ljallangan bo'lib, axborot tashish, xabar berish vazifalarini bajaradi. Bu uslubda berilayotgan material ommaga tushunarli, aniq hamda to'g'ri bo'lishi shart.

BuxDU magistranti Sh. Rahmatullayevning taqrizlanayotgan dissertatsiyasida publitsistik uslub masalalari tahlil etilgan bo'lib, dissertatsiya ishning umumiy tavsifi, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning umumiy tavsifida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, yangiligi kabilar bayon etilgan.

O'zbek matbuoti istiqlol yillarida ham son ham sifat jihatidan yangilandi. Gazeta va telivediniyada berilayotgan materiallarning ishonchliligiga, ommaga qaratilayotganligiga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun sharoitlar yaratilgan bo'lib, qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiyaning 1-bobi "Til va uslub muammosi" deb nomlangan. Bu bob ikki qismdan iborat. Uning 1-qismida tildagi me'yor va uslub hamda 2-qismida uslub va uning turlari masalasi yoritilgan. Dissertant tildagi me'yor haqida gapirar ekan, avvalo, me'yor tushunchasini til va nutq munosabatida o'rgangan. Shu bilan birga, uslub tushunchasiga ham atroflicha ta'rif beradi.

Ishning "Publitsistik uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan 2-bobi ham ikki qismdan tashkil topgan. Bobning 1-qismida "Publitsistik uslubning o'rganilishi" masalasi yoritilgan. Bunda publitsistik uslubda ijod qilgan tadqiqotchilarning ishlari bilan tanishib chiqqan va dissertantning munosabati bayon etilgan.

Bobning 2-qismi esa "Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyati",- deb nomlanadi. Bunda mazkur uslubning jamiyat hayoti va uning taraqqiyotini matbuot vositasida yoritish, ommaga tez, haqqoniy va tushunarli tarzda yetkazish vazifalari xususida so'z yuritilgan.

Dissertatsiyaning 3-bobi "Publitsistik uslubning leksik-grammatik xususiyatlari" deb nomlangan. Mazkur bobda matbuot nashrlarining leksik-grammatik jihatlari ochib berilgan. Jumladan, so'zlarning, grammatik shakllarning publitsistik uslubdagi o'ziga xosligi, namoyon bo'lish shakllari xususida so'z yuritilgan.

Dissertatsiya umumiy xulosalar bilan yakunlangan. Xulosalarda ish davomida bayon etilgan fikrlar o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning ayrim joylarida orfografik xatolar mavjud bo'lgan so'zlar tuzatildi.

Ish mavjud talablarga javob beradi. Uning muallifi lingvistika (o‘zbek tilshunosligi) mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olishga loyiq.

Taqrizchi:

A. R. Ahmedov

**BuxDU magistranti Rahmatullayev Sharofiddin Ne‘matullavichning
5A120102 – Lingvistika (o‘zbek tilshunosligi) mutaxassisligi magistranti
akademik darajasini olish uchun yozgan
“O‘zbek tilida publitsistik uslub” mavzusidagi
dissertatsiyasiga rasmiy hakam**

TAQRIZI

O‘zbek tilidagi nutq uslublari nutqning turli ko‘rinishlariga xoslangan. Jumladan, publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari hamda matbuot tilida qo‘llanadi. Publitsistik uslub ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, axborot tashish, xabar berish vazifalarini bajaradi. Berilayotgan axborot ommaga tushunarli, aniq, mantiqiy hamda to‘g‘ri bo‘lishi shart.

BuxDU magistranti Sh.Rahmatullayevning taqrizlanayotgan dissertatsiyasida publitsistik uslub masalalari tahlil etilgan.

Dissertatsiya ishning umumiy tavsifi, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning umumiy tavsifida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, yangiligi kabilar bayon etilgan.

Dissertant to'g'ri ta'kidlaganidek, istiqlol davrida matbuot, radio va televideniyea materiallari ham shaklan, ham mazmunan yangilandi. Shuningdek, o'zbek matbuoti son va sifat jihatidan o'zgardi. Matbuotning jamiyatdagi o'rni va rolini yanada oshirish, taraqqiyot mezonlarini ko'rsatish, ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur qonunlar ishlab chiqish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Shuning uchun gazeta tili, leksikasi muammolarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiyaning 1-bobi "Til va uslub muammosi" deb nomlangan. Bu bob ikki qismdan iborat. Uning 1-qismida tildagi me'yor va uslub hamda 2-qismida uslub va uning turlari masalasi yoritilgan. Dissertant tildagi me'yor haqida gapirar ekan, ularning nafaqat publitsistik, balki barcha uslublar uchun ham o'ta ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga uslub tushunchasiga ham atroflicha ta'rif beradi.

"Publitsistik uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan 2-bob ham ikki qismdan tashkil topgan. Bobning 1-qismida "Publitsistik uslubning o'rganilishi" masalasi yoritilgan. Bunda mavjud adabiyotlardan foydalangan holda o'zbek tilining publitsistik uslubi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan, ularga dissertantning munosabati bayon etilgan.

Bobning 2-qismida esa "Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyati" o'rganilgan. Bunda mazkur uslubning jamiyat hayoti va uning taraqqiyotini matbuot vositasida yoritish, ommaga tez, haqqoniy va tushunarli tarzda yetkazish hamda bu borada mutaxassislarning vazifalari xususida so'z yuritilgan.

Dissertatsiyaning 3-bobi "Publitsistik uslubning leksik-grammatik xususiyatlari" deb nomlangan. Mazkur bobda matbuot nashrlarining o'ziga xos til jihatlari, ularda qo'llanadigan lingvistik shakllar, ularning semantik, uslubiy qo'llanishi kabilar ochib berilgan. Jumladan, so'zlarning, grammatik shakllarning publitsistik uslubdagi o'ziga xosligi, namoyon bo'lish shakllari xususida so'z

yuritilgan.

Dissertatsiya umumiy xulosalar bilan yakunlangan. Xulosalarda ish davomida bayon etilgan fikrlar o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaga matbuot nashrlaridan olingan, ishda tahlil etilgan ayrim maqolalar ilova qilinsa yaxshi bo'lar edi.

Ish mavjud talablarga javob beradi. Uning muallifi lingvistika (o'zbek tilshunosligi) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik darajasini olishga loyiq.

Taqrizchi

G.N.Qurbonova,

BuxDTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

*Fakultet ilmiy kengashning 2016- yil 27- may
bayonnomasi bilan tasdiqlangan*

BuxDU filologiya fakulteti 5A 120102 – Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi magistranti Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevichning "O'zbek tilida publitsistik uslub" mavzusidagi magistrlik ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilangan me'yorlar			
1	MDning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 70 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo'yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yeterli darajada asoslangan–5b.	yeterli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	MDda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to'la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to'la ishonchli emas–3 ball
7	MDning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi; ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo'q– 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha	aniq-8 ball	to'la aniq emas	tanqidiy

	olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi		– 6 ball	baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	MDning ichki va tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	MDga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Mamatov A.E.

A'zolari: 1. dots. Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof.Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots.Eshonqulov H.P. (a'zo)

4. dots.Yo'ldosheva D.N. (a'zo)

11-iyun, 2016-y.

REJA:

Ishning umumiy tavsifi.

I BOB. TIL VA USLUB MUAMMOSI.

1.1. Tilda me'yor va uslub.

1.2. Uslub va uning turlari.

II BOB. PUBLITSISTIK USLUB VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Publitsistik uslubning o'rganilishi.

2.2. Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyati.

III BOB. PUBLITSISTIK USLUBNING LEKSIK – GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

3.1. Publitsistik uslub (gazeta tili)ning leksik xususiyatlari.

3.2. Publitsistik uslub (gazita tili)ning morfologik xususiyatlari

Xulosa.

Ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining oynasi va eng muhim axborot yetkazuvchi vositasi hisoblanadi. Ommaviy avborot vositalarining barcha turlari jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos funksiyani bajaradi. Mustaqillik matbuotimizga ham son, ham sifat jihatidan o'zgarishlar qilishga, yangicha taraqqiyot omillarini belgilashga imkon berdi. Shu bilan birga, xolis, haqqoniy, tezkor, mazmunli axborot yetkazib berish manbai sifatida matbuotning o'rni va roli, aynan, istiqlol yillarida yanada mustahkamlandi.

Matbuotning obyekt manbai hisoblangan gazeta tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Mustaqillik tufayli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarimizda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bunday o'zgarishlar ommaviy axborot vositalari tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Istiqlolning dastlabki yillarida ommaviy axborot vositalarining jamiyatda tutgan o'rni, jurnalistlarning mavqei, kelgusidagi vazifalari haqida Prezident Islom Karimovning bir qator asarlarida, jurnalistlar bilan uchrashuvlarida aniq belgilab berildi.

Istiqlol davrida matbuot, radio va televideniye materiallari ham shaklan, ham mazmunan yangilandi. Shuningdek, o'zbek matbuoti son va sifat jihatidan o'zgardi. Matbuotning jamiyatdagi o'rni va rolini yanada oshirish, taraqqiyot mezonlarini ko'rsatish, ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur qonunlar ishlab chiqish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Shuning uchun gazeta tili, leksikasi muammolarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Matbuot materiallari yozma manba sifatida o'zbek adabiy tili rivojini o'rganish va baholash, adabiy til imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning boyligini namoyish qilish, tildan targ'ibot-tashviqot vositasi sifatida foydalanish, savodxonlikni oshirish singari jabhalarda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy tildan faol foydalanishda obyektiv imkoniyatlar tug'ilishi gazeta tilida ixchamlik, ravonlik, haqqoniylik xususiyatlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Matbuot leksikasining ravnaqi ijtimoiy-adabiy fakt sifatida gazeta tilining lingvistik va ekstralingvistik omillari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, publitsistik uslub orqali omma bilan doimiy muloqot olib boriladi va u ommaga tezkor axborot berish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy leksikadan faol foydalanish, so'zlashuv uslubiga intilish publitsistikaga xos xususiyatdir. Ommaviy axborot vositalarining oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, ularning tili va uslubi ham muhim ahamiyatga ega.

Matbuot tilini o'rganish adabiy tilning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham matbuot tilining lisoniy xususiyatlari nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari tilini o'rganish yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, matbuot, axborot, targ'ibot va tashviqot vositasi bo'lishi bilan birga milliy ma'naviyatimizda ham beqiyos rol o'ynaydi. Shu bilan birga, publitsistik uslub nutq madaniyatini rivojlantirish va savodxonligini oshirishdagi vazifasi nuqtayi nazaridan ham ahamiyati nihoyatda kattadir. Matbuot tilining adabiy me'yorga mos bo'lishini ta'minlash jamiyatda fuqarolarning savodlilik darajasini oshirishda muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda, lisoniy tadqiqotlar olib borish talablarini kengaytiradi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini davr talabi nuqtayi nazaridan jurnalistlarning kasbiy mahorati va davlat tili qoidalari, adabiy til me'yorlariga amal qilish holati jihatidan baholash, kelgusida namunaviyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi, bu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga ko'maklashuvchi tavsiyalar berish har jihatdan foydali va davr talabiga mosdir.

Ommaviy axborot vositalarida gazeta janrlari imkoniyatlaridan to'la foydalanish, materiallarning janriy rang-barangligini ta'minlash, axborotlarni aniq, xolis, ta'sirchan shakllarda yetkazish, tildan foydalanish mahoratini tinmay oshirib borish sohalarida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Aksariyat materiallarning saviyasi, ma'lum janr talablariga mosligi e'tiborni tortadi. Yuqorida bayon qilinganlar tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, matbuot materiallarida ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuz berdi. Ularda yurtimizning bugungi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, diniy, maishiy hayotidan darak beruvchi ko'plab tadqiqot ishlari, maqolalar yaratila boshlandi.

Prezidentimiz: “Milliy o‘zligimizni anglash, bebaho ma’naviy merosimizni asrab-avaylash va xalqimizga yetkazishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligi”¹ni bejiz ta’kidlab o‘tmaganlar.

Gazeta matnlarining tadqiq etilishi tilshunoslikda yangi hodisa emas. Bu borada rus tilshunosligida samarali yutuqlarga erishilgan. Jumladan, G.O.Vinokur, A.M.Peshkovskiy, D.Ye.Rozental, A.S.Gorbunov, V.N.Vinokurov, V.G.Kostomarov, D.P.Vovchok² va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ularning izlanishlarida, publitsistik uslub, gazeta tili va uslubining o‘ziga xos jihatlari, uning janrlari, sarlavhaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham publitsistik uslubning til xususiyatlarini o‘rganilishda jiddiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, gazeta tilining lingvostilistik xususiyatlari, gazeta tili va adabiy norma, gazeta janrlarining tili va uslubi, gazeta matnlarida nutq madaniyati kabi masalalar K.Yusupov, A.Boboyeva, I.Toshaliyev, M.Xudoyqulov, S.Muhamedov, T.Qurbonov, A.Abdusaidov, D.Teshaboyeva kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.³

Keyingi yillarda matbuot tili leksikasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ancha kuchaydi. Har bir xalqning eng asosiy ma’naviy boyliklaridan biri uning tilidir. Tilning asosiy materiali so‘zdir. Tildagi barcha so‘zlar lug‘at tarkibini tashkil etib, ushbu so‘zlar matbuot tili leksikasi orqali xalqqa tarqaladi. Xususan, gazeta tilini atroflicha o‘rganish, adabiy til xususiyatlarini tadqiq etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiyaning maqsadi yurtimizda mustaqillik yillarida nashr etilayotgan ayrim gazeta

¹ Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009, 3-б.

²Бу ҳақда ушбу ишда обзор берилган. Абдусaidов А. Газета тили ва адабий норма. – Самарқанд, 1988, 5-бет.

³ Қаранг: Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1986; Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 22 с.; Бобоева А. Газета тили ҳақида. –Тошкент, 1983; Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова И. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983; Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт... дис. автореф. – Самарқанд, 2005. – 48 б.; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. докт. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2012. – 48 б. ва бошқалар.

materiallarining me'yor va uslub xususiyatlarini o'rganish, publitsistik uslubning leksik, grammatik xususiyatlari hamda ocherk, feleton kabi janrlarning leksik, grammatik xususiyatlarini tahlil etishdan iboradir.

Ilmiy tadqiqotda quyidagilarni o'rganish vazifa qilib belgilangan:

- o'zbek adabiy tili me'yorlarini tadqiq qilish;
- uslub va uning turlarini o'rganish;
- so'nggi yillarda publitsistik uslubning til imkoniyatlarini o'rganish;
- publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyatini mustaqillik davri gazeta materiallari misolida o'rganish;
- publitsistik uslubning gazeta tili misolida leksik xususiyatlarini tadqiq etish;
- publitsistik uslubning gazeta tili misolida morfologik xususiyatlarini tadqiq etish;
- ocherk janrining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish va ushbu o'ziga xoslikni ta'minlovchi lisoniy birliklarni tahlil qilish;
- feleton janrining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

Tadqiqotning obyekti va materiali. Mustaqillik davri gazeta materiallarining tili, leksik morfologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Shu bilan birga, publitsistik uslubning janriy xususiyatlarini tadqiq qilishdan iboratdir.

Ishning ilmiy yangiligi. Tilshunoslik sohasida bizgacha ko'plab ilmiy ishlar qilingan. Mazkur dissertatsiyamizning yangiligi shundaki, unda publitsistik uslubning, jumladan, gazeta tilining mustaqillik davri matbuotida yoritilayotgan turli materiallarning leksik, morfologik xususiyatlarining farqli jihatlari o'rganildi. Shu bilan birga, publitsistik uslubda uchraydigan janrlarning leksik, morfologik xususiyatlarining yangi qirralari tadqiq qilindi.

Tadqiqot ishining kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.

Buxoro davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2015-2016-yillarga mo'ljallangan "-----" mavzuidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "-----" bandiga asosan bajarilgan.

Tadqiqot mavzusi o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2014-yil -----son majlisi qarori bilan tasdiqlangan.

Tadqiqotning joriylanishi. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi bo'yicha 6 ta ilmiy maqola e'lon qilingan. Shuningdek, BuxDU professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari, magistrantlari va talabalarining an'anaviy ilmiy anjumanlarida (2015-2016) ma'ruza qilingan. Kafedraning yillik majlislarida ilmiy-tadqiqot natijalari hisobot tarzida muhokama etilgan.

Tadqiqotning metod va metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik falsafaning umumiylik-xususiylik munosabatlariga oid qonun-qoidalari, tabiat, jamiyat va tafakkur elementlarining o'zaro sistem munosabatda ekanligi haqidagi ta'limoti tashkil qiladi. Ushbu ishda an'anaviy va sistem tilshunoslikning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, sintezlash kabi metodlaridan foydalanildi. Ishda metodologik asos sifatida o'zbek tilshunosligining fundamental tadqiqotlari va leksik, morfologik tahlillarning ilmiy-nazariy muammolari aks ettirilgan boshqa manbalar, darslik va qo'llanmalardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy rahbarimiz B.Qilichevning ilmiy risola, monografiya, doktorlik dissertatsiyasi materiallari hamda metodik tavsiyalari ham ushbu ishning yaratilishida asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishning umumiy tavsifi, uchta asosiy bob, foydalanilgan adabiyotlar, xulosa qismlaridan iborat bo'lib, 85 sahifani tashkil qiladi.

I BOB.

TIL VA USLUB MUAMMOSI

1.1. Tilda me'yor va uslub

Inson, tabiat va jamiyat mahsulidir. Bu esa har doim ularning qurshovida yashashini anglatadi. Shu bilan birga, inson, tabiat va jamiyatning oliy mahsuli ham sanalib, atrofidagi borliqni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu jarayonda material hisoblangan tilning ahamiyatini hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ham til tafakkur quroli deb bejiz aytilmaydi. "Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan, ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi" [20, 20].

Til muomala vositasiga aylandimi, uning tabiiy ravishda imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Natijada esa u nutq va nutqiy jarayon quroliga aylanadi. Shu boisdan, inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot yetkaziladi.

Shu o'rinda akad. V.V.Vinogradovning muhim bir fikrini eslamaslik aslo mumkin emas. U tilning uchta eng muhim vazifasi mavjudligini ta'kidlagan edi: aloqa, xabar, ta'sir etish [9, 6.].

Ma'lumki, tilning hech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy jarayonsiz amalga oshmaydi. "Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi" [24, 31].

Demak, til nutqning o'ta muhim unsuri sifatida aloqa, xabar, ta'sir etish va jamiyat to'plagan tajriba va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishdek ulug'vor ijtimoiy vazifani bajaradi. O'z shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo'l va muddatni o'taydigan til asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, takomillashib boradi. Bu holni uning ichki qurilishida, amalda bo'lish qoidalarining ma'lum bir tizimga kelishida kuzatishimiz mumkin. "Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi

va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir” [20, 22].

Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini taniqli tilshunos olimlar H.Ne’matov va R.Rasulovlar sistem tilshunoslik “til-me’yor-nutq” tarzida ajratishini ta’kidlashib, shunday deydilar: “Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a’zolarining ongida mavjud bo’lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo’lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o’zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig’indisi sifatida qaraladi”.

Nutq tilning namoyon bo’lishi, ro’yobga chiqishi, voqelanish shakli bo’lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir. Me’yor (norma) esa til birliklari va nutqning u yoki bu ko’rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo’lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir” [18, 7].

“Og’zaki nutqda jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan maxsus tovushlar tizmasi mavjud bo’lib, biz ularni talaffuz etishimiz, aytishimiz shart. Aytilganlarning barchasi me’yorning tarkibiy qismlaridir. Shunga ko’ra til imkoniyatlari me’yor darchasidan o’tib, nutqda yuzaga chiqadi” [18, 27].

Me’yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi. Necha ming yillar davomida shakllangan an’anaviylikka ega bo’ladi. Inson tafakkurining borliqni idrok etishi juda murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon ekanligi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning tilda tegishli atamalar bilan nomlanishi insonning fikrlash jarayonida ko’maklashishi barchamizga ma’lum. Bir xil predmet, narsa va hodisaning boshqa tillarda turlicha nom olishi esa tilning ijtimoiy-tarixiy-milliy hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu nomlanishlarning har bir holatda o’ziga xos tarzda me’yor ekanligini ham ko’rsatib turadi.

Bundan tashqari, tildan foydalanishdagi tarixiy jarayon shuni isbotlaydiki, ma’lum bir tilda bir tushunchani ifoda etadigan so’z mavjud bo’lishi bilan birga uning boshqa bir tildan o’zlashtirilgan mustaqil varianti ham baravar ishlatilib

kelinadi. Hatto davrlar o'tib, ular o'zaro sinonimik nozikliklardan ham judo bo'lib qolishi, bab-baravar lingvistik qiymatga ega bo'lishi ham mumkin. Bu holat ham tildagi me'yoriy qonuniyat sifatida qabul qilinadi.

Shiddat bilan davom etayotgan ijtimoiy tarixiy jarayon til taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatsa, uning amaliy me'yorlariga ham shunday ta'sir qiladi. Demak, ana shu taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, me'yor darajasini ham doimo kuzatib borish va tartibga solib turish lozim bo'ladi.

Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirilishini, bir tomondan, til mutaxassislari boshqarib borishsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, fikrimizcha, bir narsa ma'lumki, tilning amalda bo'lish holatlariga tazyiq o'tkazib bo'lmaydi. Lekin tegishli yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar berilib borilishi zarur. Bu me'yoriy tavsiyalarning qanchalik hayotiy ekanligini esa amaldagi nutqiy jarayonning o'zi belgilaydi. Shuni a'lohida ta'kidlash lozimki, ana shu me'yoriy hujjatlarsiz, yo'l-yo'riqlarsiz ham til va nutq rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. Qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonun buni yaqqol isbotlaydi. Keyingi yillarda tilimiz rivoji, taraqqiyoti va nutq madaniyatida yuz bergan o'zgarishlarni nafaqat o'zbek tili mutaxassislari, balki, shu tilda so'zlashuvchi barcha insonlar, hatto respublikamiz hududida yashovchi ona tilisi boshqa bo'lgan kishilar ham kuzatib, bilib, erishilgan yutuqlarni e'tirof etib turishibdi.

Shu bilan bir qatorda, o'zbek tili va nutq madaniyati uchun olib borilayotgan izlanishlarimiz talab darajasida emasligidan, bizni qanoatlantirmayotganligidan ham ko'z yuma olmaymiz. Xulosa shu bo'ladiki, bu boradagi ishlarimizni izchil va doimiy holatga keltirishimiz kerak. Buning uchun, eng avvalo, adabiy til me'yorini belgilashning amaliy jihatini bilan jiddiy shug'ullanishimiz kerak. Xo'sh, me'yorni belgilashning amaliy jihatini nimadan iborat? Bu savol ham xuddi tilni ilmiy jihatdan o'rganish nima uchun kerak, deganga o'xshaydi. Yillar davomida olib borilgan yoki olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida til elementlarida qanday mazmuniy va shakliy imkoniyatlar mavjudligi sinxronik va diaxronik yo'nalishda, matniy jihatdan tahlil qilinadi, lingvistik imkoniyatlari ochib beriladi va ulardan nutq jarayonida foydalanish yo'llari tavsiya qilinadi. Ma'lum ma'noda

bu ham ularning me'yorni belgilash va til birliklarining ishlatilishiga oid tavsiyalar berish degan gapdir.

Biz o'rganayotganimiz me'yor masalasi ijtimoiy hayotimiz uchun yangilik emas. Til va jamiyat mavjudki, bu masala ham o'rtadadir. Ammo, har bir davr o'z taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tildan foydalanishning o'z muammolarini, dolzarb vazifalarni keltirib chiqaraveradi. Masalani ana shunday tushunish to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Til me'yorlarini o'zbek tilshunosligining alohida sohasi sifatida o'rganish xalqimiz nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishning bevosita davomi bo'lib, bu jarayonning boshlanishi XX asrning 60-70-yillariga to'g'ri keladi. Tabiiyki, bu masalalarni me'yor, xususan, adabiy til me'yori muammolariga aniqlik kiritmasdan turib hal qilib bo'lmazdi. Chunki til adabiyligi darajasining asosiy belgilaridan biri ana shu me'yor hisoblanib, "Nutq madaniyati nazariyasining asosiy predmeti normadir" degan qarash keng tarqalgan edi [44, 166-167]. Ammo aytilganlardan o'zbek tilini me'yorlashtirish yaqin yillardan boshlangan ekan-da, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Chunki til paydo bo'lib, jamiyatga xizmat qila boshlagan paytlardanoq, uning amalda bo'lishining ma'lum me'yorlari yuzaga kelgan. Til birliklarining jamiyat a'zolari tomonidan faol ishlatila boshlashi ularning me'yorlashuvini tezlashtirgan. Yozuv esa ana shu jarayonda muhim bosqich sanalgan. Shu ma'noda turkiy tillarning, jumladan o'zbek tilining me'yorlasha borishida "Devonu-lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul haqoyiq" va boshqa ilmiy-tarixiy yozma manbalarining xizmati katta bo'lganligini eslab o'tish kifoya. O'zbek nutqi madaniyati va me'yorini o'rganishning tadqiqotchisi va nazariyotchisi prof. E.Begmatovning qayd etishicha, XX asrning boshlarida o'zbek adabiy tili taraqqiyotining yangi bir bosqichida u uchun asos bo'lgan dialektal negizni belgilash, yozuv va alifbo masalalarini hal qilish, imlo qoidalarini ishlab chiqish, imlodagi mavjud kamchiliklarni tuzatish, umuman til birliklarini qo'llashdagi ikkilanish va beqarorlikni bartaraf etish, atamalarni takomillashtirish, grammatikalar yaratish, o'qish-o'qitish ishlarini yo'lga qo'yish singari vazifalarini amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlar ham nutq madaniyati

muammolarini hal qilishning tarkibiy qismi edi [44, 166-167]. Binobarin, bu masalalarni hal etishga kirishishni o'zbek tili me'yoriy muammolarini tadqiq etishning boshlanishi, deb hisoblash ham mumkin. Bundan esa o'tgan davr mobaynida o'zbek tilini tadqiq etishga bag'ishlangan kuzatishlarning ma'lum qismi shu tilning me'yoriy muammolarini hal etishga xizmat qilgan, degan xulosa kelib chiqadi. "Adabiy norma nazariyasi" asarining mualliflari E.Begmatov va A.Mamatovlar jahon tilshunosligida til me'yorlarini o'rganish bo'yicha asosan to'rtta – Praga tilshunoslik maktabining, Amerika, ingliz, nemis hamda rus tilshunosligining markazlari shakllanganligini ta'kidlashadi [8, 56]. Dunyodagi barcha tilshunoslik fanlari, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham me'yoriy muammolarni hal qilish ana shu markazlarda to'plangan ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda rivojlangan, deyish mumkin.

A.G'ulomov "Fonetik vositalar va adabiy normalar maqolasida" "fonetik o'zgarishlarning sababi, talaffuzimizni qulay qilish, gapirishni yengillashtirish, so'zlash organlarining, muskullarning harakatini va vaqtni tejash, qulaylik va ekonomiya prinsipi" [64, 366] ekanligini ta'kidlaydilar. Bu o'zgarishlar talaffuzda qanday holatlarda uchrashi mumkinligi hamda me'yoriy va nome'yoriy holatlarning adabiy me'yorlarga, uslubiy maqsadlarga, singarmonizm hodisasiga moslik darajasi xususida ona tilimiz tabiatidan kelib chiqib, boy misollar asosida g'oyatda aniq ilmiy kuzatishlar natijalarini bayon qilganlar.

O'zbek tili imlosini me'yorlashtirish va takomillashtirish ham o'ziga xos tarixga egadir. 1989-yilning 21-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilindi va bu tadbir o'zbek tilining amalda bo'lishi uchun yangi istiqbollarni ochib berdi. Ona tilimiz qo'llanish ko'lamining, ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavqeyining kengayishi, ayni paytda, rus tili tazyiqining susayib borishi ana shu istiqbol yo'lidagi imkoniyatlar edi.

Yurtimizning mustaqillikka erishishi bu imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirdi. Oqibatda tilimizning orfografik me'yorlarini belgilashdagi muammolarni hal qilish yangicha mazmun kasb etdi. 1993-yilning 2-sentyabrida mustaqil O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek

alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qilindi. Nihoyat, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda "O'zbek tilning asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" qarori chiqdi. O'zbek tilining imloviy me'yorlarini belgilash ana shu qonuniy hujjatlarga tayanilgan holda olib borilmoqda [3; 4].

O'zbek adabiy tilini me'yorlashtirishdagi eng og'ir vazifalardan biri og'zaki nutq me'yorlarini belgilashdir. Buning sabablari ko'p, albatta. Shulardan biri, ona tilimizdagi lahja va shevalarning ko'pligi bo'lsa, ikkinchisi, og'zaki nutq madaniyatining xalqimiz orasida talablar darajasida rivojlanmaganligi deb hisoblash mumkin.

Shu bilan birgalikda, o'zbek tilining leksik va frazeologik me'yorlari muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan eng katta hajmdagi tadqiqot prof. A.Mamatov qalamiga mansub. Olim o'zining "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" (Toshkent, 1991) deb nomlangan monografiyasida mazkur mavzuga oid muhim masalalarni hal qilib bergan [15, 121-122].

Keyingi yillarda, shubhasiz, o'zbek tili grammatik me'yorlarini takomillashtirish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ona tilimiz morfologiyasi va sintaksisini tadqiq etishga bag'ishlangan o'nlab doktorlik ishlari, monografiyalar va darsliklar shular jumlasidandir.

Shunga qaramasdan, grammatik me'yorlarga nutq jarayonida, ayniqsa, og'zaki nutqda jiddiy e'tibor qilinmayotgani til madaniyatining ravnaqiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Nutqda "fikrni reallashtirish uchun tilda mavjud va yangidan paydo bo'lgan gap (jumla) shakllarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish, so'ngra gap (jumla)da so'z-o'zak, negiz va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatning to'g'ri bo'lishiga, ega va kesim mosligi, ikkinchi darajali

bo‘laklarning xususiyatlariga yaxshi e‘tibor berilishi, gapda so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirilishi” [48, 31] lozimligiga hamma ham e‘tibor berayotgani yo‘q.

Qo‘shimchalar sinonimiyasiga e‘tibor bermaslik, ularning adabiy va dialektal variantlarini farqlamaslik, kelishiklarning belgili va belgisiz qo‘llanilishi, ularning ko‘makchilar bilan sinonimiyasi, so‘z shakllarining buzilishi singari morfologik chalkashliklar, gap bo‘laklari orasidagi grammatik munosabatlarni yetarli darajada payqamaslik, poetik matnda ular o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlarni jimjimadorlikka, qofiyabozlikka qurbon qilish singari sintaktik g‘alizliklar uchrashi hamon davom etmoqda.

Tilshunosligimizda uslubiy me‘yorlarni belgilashda ham ma’lum tadqiqotlar amalga oshirilgan. Uslubiy me‘yorlar xususidagi mulohazalar orasida akad.G‘.Abdurahmonovning qarashlari diqqatga sazovordir. Olim, eng avvalo, nutqning eng yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etishda, me‘yor qilib belgilashda, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo‘llanadigan vositalarini ajratishda stilistikaning ahamiyati alohida ekanligini ta’kidlab o‘tadi [41, 53-54].

O‘zbek tilining uslubiy me‘yorlari haqidagi e‘tiborga loyiq ishlardan biri I.Toshaliyevning “Stilistik norma muammolari” maqolasi sanaladi. Muallifning ta’kidlashicha, ayrim tadqiqotlarda uslubiy me‘yorlar adabiy me‘yorga qarama-qarshi qo‘yiladi va noadabiy me‘yor deb baholanadi. Ammo bu qarashlar ilmiy asosga ega emas. Uslubiy me‘yor ham umumadabiy me‘yorning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ayni paytda uslubiy me‘yorlarga umumadabiy me‘yorlar o‘lchovini, umummajburiylik talabini qo‘yish ham to‘g‘ri emas. Bu chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki adabiy me‘yoriy nutqning har bir sohasi, har bir vazifaviy nutq tipini boshqasidan farqlaydigan uslubiy me‘yorlar va mezonlar mavjud. “Stilistik normalari ham, - deydi u, - eng avvalo, adabiy normalarga, nutq faktlariga asoslanadi va shu asosda qaror topadi” [55, 26-31].

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan me‘yor haqida, uning umuman tillar, xususan, milliy til doirasida amal qilish qonuniyatlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lindi. E.Begmatov va A.Mamatovlar milliy til qamrovidagi bu me‘yorlarning quyidagi ko‘rinishlarni ko‘rsatib o‘tishadi:

1. O‘zbek tilining umumiy me’yori yoki o‘zbek umumtil me’yori.
2. O‘zbek adabiy tili me’yori.
3. O‘zbek tilining lahjaviy me’yori (lahja va shevalar me’yori).
4. O‘zbek tilining ijtimoiy dialektlari me’yori (kasb-hunar tili, jargonlar, ijtimoiy argolarning boshqa ko‘rinishlari, tiplari me’yorlari) [8, 82].

Ana shu me’yorlarni katta ikkita guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Tilning umumiy me’yori, ya’ni umumiy me’yor.
2. Tilning xususiy me’yori, ya’ni xususiy me’yor.

Me’yorga nisbatan qo‘llaniladigan umumiylik va xususiylik til me’yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma’noda yuqorida nomlari tilga olingan olimlar tasniflagan me’yoriy ko‘rinishlarning birinchisini umumiy hamda ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchilarini xususiy me’yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Umumiy me’yor deyilganda barcha tillarga, hech bo‘lmaganda qardosh tillarga tegishli me’yorlarni tushunish lozim, degan gap, fikrimizcha, ancha mavhumdir. Umumiy tilshunoslik qarashlari nuqtai nazaridan tillardagi ma’lum qoidalargina bir-biriga mos kelishi mumkin. Ammo bu gaplarni til elementlarining barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan ko‘rinishlari haqida qardosh tillar doirasidan tashqarida aytish qiyin [8, 75-78]. Shuning uchun umumiy me’yor tushunchasining mazmunini mavhumlashtirmasdan, uni bir til doirasida izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. O‘zbek tili me’yorlarini turkiy tillar me’yorlariga nisbatan olib qarab, uni xususiy deyish shartlidir.

Shunday qilib, bir tomondan, o‘zbek tiliga tegishli bo‘lgan barcha me’yorlar yig‘indisini umumiy me’yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa, qo‘llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste’molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo‘lgan birliklar majmuini anglaymiz. “Umumiy norma tushunchasi o‘zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko‘rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo‘lgan vositalari tizimi ma’nosini ham anglatadi”[8, 78].

E.Begmatov va A.Mamatovlar adabiy til me'yorlarining umummajburiyligini ham umumiy me'yor tarzida tushunishadi [8, 79].

Xususiyl me'yor ma'lum til umumiy me'yorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o'tilgan o'zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me'yori xususiyl me'yor sanaladi. Xususiyl me'yornlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo'lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me'yorini ham, o'zbek tilida mavjud bo'lgan beshta – rasmiyl, ilmiyl, ommabop, badiiyl, so'zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me'yornlarni ham xususiyl me'yornlar deb tushunishimizga to'g'ri keladi. Adabiy til umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo'lib, uning boshqa ko'rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga mo'ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi. Millat manfaatiga va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning o'ziga xos xususiyati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati ko'p bo'lib, ular orasida me'yoriylk markaziy o'rinda turadi. E.Begmatov o'zbek adabiy tilining o'zbek xalqi uchun umummajburiyligi, ko'pvazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligini ko'rsatib o'tib, bu xususiyatlarning birontasi me'yoriylksiz amalga oshmasligini alohida ta'kidlaydi [7, 21-23].

Tadqiqotchilarning adabiy til me'yornlari haqidagi fikr-mulohazalarini umumlashtirib, uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: kodifikatsiyalanganlik – ongli aralashuv yo'li bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o'zlashganlik va anglanganlik, egallanganlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylk va namunaviylk, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda ularning nisbiyligi, an'anaviylk va izchillik, zamonaviylk va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obyektivlik kabilar. Bu xususiyatlarning har biri E.Begmatov tomonidan o'zbek tili materiallari asosida atroflicha tahlil qilingan [7, 27-71]. Til, olimlar ta'biri bilan

aytganda, “sodda til”, “xom til”, “ishlanmagan til” ko‘rinishlarida bo‘ladi. Tilning sheva va lahjaviy shakllarini ana shu ko‘rinishlar sifatida baholashimiz mumkin. Ammo “soddalik”, “xomlik”, “ishlanmaganlik” so‘zlari nisbiy ekanligini, ular lahjaviy elementlarning adabiy tilga nisbatan bo‘lgan holatini aks ettirishini unutmasligimiz zarur. Adabiy til me‘yori tadqiqotchilari uning ko‘rinishlari haqida ham mulohaza yuritganlar. E.Begmatov rus tilshunos olimlari R.A.Budagov, A.I.Yefimov, V.I.Koduxov, T.A.Degtereva, Yu.S.Stepanov, N.A.Belchikov va boshqalarning qarashlarini tahlil qilib va umumlashtirib, o‘zbek adabiy tili me‘yorining quyidagi ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatib beradi: I. Umumiy tarzda: 1) yozma nutq normasi; – yozma adabiy til normasi – yozma uslub normasi; 2) og‘zaki nutq normasi – og‘zaki adabiy til normasi – og‘zaki uslub normasi.

II. Konkret olinganda: 1) leksik-semantik normalar – leksik (so‘z qo‘llash) normalari; 2) talaffuz (orfoepik) normalari; 3) aktsentologik (so‘z va formalarda urg‘uning to‘g‘riligi) normalari; 4) fonetik normalar; 5) grammatik (morfologik va sintaktik) normalar; 6) so‘z yasaliş normalari; 7) orfografik normalar; 8) grafik (grafika) normalari; 9) punktuatsion normalar; 10) stilistik normalar [7, 75]

O‘zbek adabiy tilining ifoda materialidan biri bo‘lgan lahja va shevalar umumxalq tili tarkibiga mansubdir. Ular adabiy til doirasiga kirmaydi. Lahja va shevalarning xususiy me‘yorlarning boshqa turlari bilan solishtirib, birinchi navbatda ularning adabiy til me‘yorlaridan jiddiy farqlanishini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Ma’lum ma’noda kishilarning xohish-irodasidan tashqarida shakllanishi, iste’molchilar tomonidan idora qilinmasdan, tabiiy ravishda, o‘z holicha me‘yorlashib borishi va avloddan-avlodga o‘tishi ana shu farqlardan asosiysidir. Undagi elementlarni aynan shu tarzda qo‘llash majburlanmaydi, balki u tabiiy yo‘sinda qabul qilinadi va foydalaniladi. Qayta ishlashning zarurati yo‘q. Turg‘un qoliplar kimlarningdir tomonidan tavsiya qilinmaydi va qonun-qoidalar, qarorlar ko‘magida mustahkamlab qo‘yilmaydi. Agar adabiy tilning me‘yorlashuviga jiddiy ta’sir qiladigan yozma hamda og‘zaki shakllari mavjud bo‘lsa, lahja va shevalarda nutqning faqat og‘zaki shakli amalda bo‘ladi. Lahja va sheva elementlarining

amalda bo'lishida oliy hakam taqlid va an'anaviylik, odatlanish va ko'nikma bo'lib hisoblanadi. Binobarin, undagi birliklarning me'yorlashuvida ham ana shu xususiyatlar ustun turadi.

Shunday ekan lahja va shevalar me'yorlariga adabiy til me'yorlariga xos bo'lgan belgi xususiyatlarning faqat ma'lum qismigina tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, anglanganlik va tushunilganlik, an'anaviylik va izchillik, reallik va obyektivlik kabilar shular jumlasidandir. Qolgan holatlarda esa, ma'lum ma'noda, adabiy tilga zid qonun-qoidalar asosida amal qilaveradi.

“Adabiy norma nazariyasi” asari mualliflari E.Begmatov va A.Mamatovlarning ta'kidlashicha, “ma'lum sheva vakili yoki sheva jamoasi o'z shevasini eng to'g'ri til deb biladi. Ushbu tasavvur shevada gaplashuvchilarning ichki va tashqi ta'sirlanishi (reaktsiyasi) da yorqin ko'rinadi. *Ichki ta'sirlanish* – so'zlaganda o'ylash, nutq jarayonida so'zlarni axtarish, yosh bolaga til o'rgatish, suhbatdosh nutqidagi “nuqsonlar”ni to'g'rilash, unga nutqqa daxldor savollar berish, so'zlovchining nutqidagi ba'zi qo'llanishlarga qo'shimcha izoh berishi, sheva aktsentidan qutula olmaslik va boshqalarda ko'rinadi. *Tashqi ta'sirlanish* – o'zga (qo'shni) sheva vakillari so'zlaganda ular nutqida qo'llangan ba'zi vositalarga hayratlanish, uni tushunmaslik hollarida, yosh sheva vakiliga izoh talab qiluvchi savollar berish, qo'shni sheva vakili nutqidan kulish, adabiy tilni maxsus ta'lim orqali egallash, adabiy tilga xos ba'zi normativ vositalarga tezda ko'nikib keta olmaslik yoki ularning ba'zilarini xatolik deb bilish, shevaga xos diktsiya va aktsentlardan tamoman qutulib keta olmaslik va boshqalarda namoyon bo'ladi” [7, 71-72].

Mana shu tarzda tilning lahjaviy ko'rinishlari o'z imkoniyati doirasida vaqtlar o'tishi bilan me'yorlashib boradi. Xuddi ana shu fikrni ona tilimizning lug'at boyligini tashkil qiladigan kasb-hunar leksikasi, ijtimoiy-kommunikativ tarmoqlari (jargonlar va boshqalar) leksikasi va hatto, alohida adabiy janr sifatida shakllangan xalq og'zaki leksikasi xususida ham aytish mumkin. Bularning barchasi til me'yorlari doirasida xususiy me'yor sifatida qaraladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tildagi barcha leksimalarning qo‘llanilishida me’yor qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, Uslubiy me’yor ham shunchalik ahamiyatga egadir. Ammo bu me’yorning nozik tomonlarini tushunib olish adabiy til me’yori tizimidagi boshqa xususiy me’yorlarni anglashga nisbatan bir qadar og‘ir kechadi. Buning sababini E.Begmatov shunday izohlagan edi: “Ma’lumki, til sohalariga ko‘ra normalar o‘z materiali, ya’ni o‘z til birliklariga egadir. Masalan, fonetik normalar – fonema, grafik normalar – grafema, morfologik normalar – morfema, leksik normalar – so‘z (leksema), sintaktik normalar – so‘z birikmasi, gap; so‘z yasash normalari – yangi so‘z va so‘z formalari singari. Uslubiy normalarda ham mana shu kabi material, birikmalar bormi? Birinchi qarashda har bir uslub o‘z mustaqil vositalariga egadek tuyuladi. Aslida esa bunday vositalarning yo‘qligini ko‘ramiz” [7, 78-79].

Uslubiy me’yorning o‘zi nima va uni qanday tushunishimiz kerak? Ma’lum bir nutqiy vaziyatda, u og‘zaki va yozma bo‘lishidan qat’iy nazar, so‘zlovchi va yozuvchining o‘z niyati va muddaosidan, nutq mavzusi va mazmunidan kelib chiqib, til birliklarini qo‘llash, tanlab ishlatish imkoniyati uslubiyatni yuzaga keltiradi. Bu birliklarni tanlab ishlatishga bo‘lgan so‘zlovchi yoki yozuvchining individual ehtiyoji ularning o‘z uslubini, agar kengroq doirada olib qaraladigan bo‘lsa, ana shu elementlarni ijtimoiy hayotning ma’lum sohalarida qo‘llash bu sohalarida tobora xoslana boradigan vazifaviy chegaralanganliklarni, binobarin, funksional – vazifaviy uslublarni keltirib chiqaradi.

Angladikki, tildagi har bir vosita uslubning shakllanishi uchun material bo‘la olishi mumkin.

Endi so‘z qo‘llash me’yoriga ham diqqat qilib ko‘raylik. Zavqiyda shunday misralar bor : *Yuzingni ko‘rsatib avval o‘zingga bandalar qilding* misolidagi yuz so‘zini uning sinonimlari bilan almashtirib ko‘ramiz: *J a m o l i n g ko‘rsatib avval..., R u x s o r i n g ko‘rsatib avval...* Yana: *T u r q i n g n i ko‘rsatib avval o‘zingga bandalar qilding, B a s h a r a n g ko‘rsatib avval...* va hokazo. Garchi bir sinonimik qatorda joylashgan so‘zlar misrada o‘rni almashtirilib qo‘llanilayotgan va bu so‘zlarning leksik ma’no darajasi teng bo‘lsa ham, ularning uslubiy

qiymatini bir xil deb aytish mutlaqo mumkin emas. Hatto keyingi almashtirishlar tufayli ifodada mantiqsizlik ro'y bermoqda, uslubiy me'yor qo'pol ravishda buzilmoqda.

Tahlildan shu narsa ma'lum bo'ladiki, adabiy til doirasidagi har bir me'yoriy buzilish nutqiy ifoda va mazmunga, binobarin, uslub va til madaniyatiga ham salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Uslubiy me'yorda nutq uslublari alohida o'rin egallaydi.

1.2. Uslub va uning turlari

Barchamizga ma'lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgach ta'lim sohasining barcha tizimlarida tubdan islohatlar o'tkazildi. Shu jumladan, o'zbek tilshunosligi ham bundan mustasno emas.

Quvonarlisi shundaki, aynan mustaqilligimiz tufayli tilshunos olimlarimiz: A.G'ulomov, F.Abdullayev, G.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, S.Usmonov, M.Asqarova, H.Ne'matov, O.Azizov, A.Borovkov, A.Hojiyev, S.Ibrohimov, A.Abdualazizov, B.Mengliyev, M.Abuzalova, B.Qilichev, Sh.Akramov, T.Asadov, B.Badriddinova, E.Begmatov, Sh.Bobojonov, O.Bozorov, M.Boshmonov, I.Madrahimov, N.Mahmudov, S.Muhammadjonova, N.Musulmonova, D.Nabiyeva, M.Narziyeva, S.Nazarova, G.Ne'matova, A.Nurmonov, D.Nurmonova, Sh.Orifjonova, R.Rasulov, Sh.Rahmatullayev, R.Sayfullayeva, R.Safarova, H.Saidova, H.Usmonova, B.Yorov, L.Raupova, S.G'iyosov, Sh.Shahobiddinova, N.Shirinova, O.Shukurov, M.Qurbonova, Z.Yunusova, N.Yo'ldosheva, N.Vohidovalarning olib borgan izlanishlari natijasi o'laroq zamonaviy o'zbek tilshunosligi milliy ruh bilan sug'orildi desak, xato bo'lmasa kerak.

Hozirgi kunda maktab, litsey, kollej, universitetlardagi darsliklar, o'quv qo'llanmalarining yangi tadqiqotlarga tayangan holda, Davlat ta'lim standartlari va o'zbek tilining qonun qoidalari asosida olib borilayotganligi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol misolidir.

Jamiyat, unda faoliyat ko'rsatayotgan xalq tinimsiz rivojlanish vataraqqiyotda

bo'lgani sari ularning tili ham uzluksiz boyib borishi tabiiy holdir. Juda ko'p asrlardan buyon o'z xalqi va millatining aloqa vositasi bo'lib kelayotgan o'zbek tilining imkoniyatlari uning barcha ko'rinishlarida yana ham kengaydi. Zamonlar silsilasida, badiiy ijod jarayonida sayqal topdi. U endi xalqimiz uchun o'zaro aloqa qilish, muloqotda bo'lish va bir-birlariga xabar uzatish vositasigina emas, balki yuksak badiiy-estetik tuyg'ularni ham ifodalaydigan va xuddi shunday ta'sir ko'rsatib, zavq bera oladigan nodir boylikka aylandi. Ana shu nodir boylikni, boshqacha qilib aytganda, ona tilimizning serqirra imkoniyatlarini butun nozikliklari bilan tahlil qilish va uni yana o'zining ijodkori bo'lgan xalqqa qaytarish o'zbek tili uslubiyati fanining bosh vazifasi bo'lib qoldi.

Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Buni biz tilimizdagi mavjud uslublar misolida ko'rib chiqamiz.

So'zlashuv uslubi (SU) kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo'yish mumkin.

Xo'sh, so'zlashuv uslubi qanday o'ziga xosliklarga ega? Birinchidan, nutq elliptik xarakterda ekanligi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo'ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi sanaladi. Masalan, *qorami? ko'kmi?* shaklida beriladigan savolni ikki xil vazifada olib ko'raylik. Agar biz uni uy bekasi tilidan eshitsak, *qora choy damlaymi* yoki *ko'k choy damlaymi?* degan ma'noda tushunishimiz mumkin. Xuddi shu savolni do'kon sotuvchisi tilidan eshitsak, *qora choy olsizmi* yoki *ko'k choy sotib olmoqchimisiz?* ma'nosida tushunamiz.

Ikkinchidan, so'zlashuv nutqida til birliklari o'zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, *ulguramizmi?* degan savolga *yo'q, ulgurmaymiz* deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, *ulgurib bo'pmiz*,

ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo'lib chiqadi.

Uchinchidan, bu uslubda ohang, intontsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og'zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo'lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so'z va gap urg'usi kabi ko'rinishlari ma'noni farqlashda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (*ketti, ottan, yigichcha*), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir, zaril, bironta*), tovushlarning o'rin almashishi (*turpoq, aynalmoq*), tovushlarning orttirilishi (*o'ramol, fikir, banka*), tushirib qoldirilishi (*gazet, burni, egni*) kabi fonetik hodisalar avvalo so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi.

Birinchi qatlam: bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari bilan bog'liq so'zlar. Bundan tashqari, bu uslubda "...siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchining kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi" [25, 15]

Ikkinchi qatlam: og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: *kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (yig'loqi)* kabi.

Bu uslubning *burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq* singari o'z frazeologizmlari mavjud. Kishi nomlaring *Abdi, Bek, Zuli, Dili* singari qisqartirib ishlatish mumkin. So'zlarning metonimik ko'lami juda keng tarqalgan. Masalan: *auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxonga o'tirdi, samovarga chiqdi* kabi.

Shu bilan birga, bu uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. *Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo‘q, albatta, aha, xo‘p* singari so‘zlar nutqda ko‘p ishlatiladi.

Kitobiy nutq uchun bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar odatda xos emas, og‘zaki so‘zlashuv nutqi uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So‘zlashuv nutqidagi sodda gaplar ko‘pincha fe‘l bilan ifodalangan kesimning yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba‘zan shunday holatlar ham bo‘ladiki, bunday gaplarga fe‘l-kesimni qo‘yib ham bo‘lmaydi. Masalan, *Biz siznikida. Biz magazinda; Men, odatda ishga avtobusda, ishdan piyoda* kabi.

Rasmiy uslub (RU) hozirgi o‘zbek tilining davlat-ma‘muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo‘ladigan ko‘rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar – xullas, barcha rasmiy ish qog‘ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari, binobarin, ushbu ko‘rinishlarning o‘z me‘yorlari mavjud. Jumladan, aniqlilik.

Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o‘rinlarga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak: *O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beradigan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.* (O‘zR Konstitutsiyasi, 7-modda).

Fikr-mulohaza, bayon, asosan, bir qolipda ifodalanadi. Solishtiramiz: *O‘zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan marhum adabiyot va san‘at namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida.*

Betakror iste‘dodi va o‘lmas ijodiy merosi bilan o‘zbek milliy madaniyatining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, butun hayotini el-yurt taraqqiyoti, xalqimiz ma‘naviyatining yuksalishiga baxsh etgan vatandoshlarimizning xotirasini yod etib, ularni Vatan oldidagi unutilmas xizmatlarini inobatga olib, quyidagi marhum adib va san‘atkorlar “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlansin. (O‘zR Prezidentining 2001-yil 22-avgustdagi Farmoni).

Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matniga ko'z yugurtirsak, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan atamalarga duch kelamiz: *ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv* va boshqalar.

Ish qog'ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me'yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatlar doirasidagi so'z va iboralarga ko'z yugurtiraylik: *ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixonona, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikatsiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh* kabilar.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda darak gaplar, ayniqsa, qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Murakkab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida esa o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

Ilmiy uslub (IU) ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur, fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Yuqorida bu kabi xususiyatlarning mushtarakligi bilan rasmiy uslubga yaqinligi aytib o'tilgan edi. Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham

keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon qilinish usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylilikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech bo'lmaganda neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi.

2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi [16, 17].

3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzatslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinli, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi.

Badiiy uslub (BU) o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida ma'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga-badiiy-estetik

vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlar, asosan, matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (*So'rma mendan, kim diloru / Do'stmi yo janona deb. E.Vohidov*) ko'rinishlarda me'yorlashgan. Shuningdek, badiiy uslubda, xususan, poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan *qaro, yamon, yaro, oshno, talosh* singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

Uslubiy xoslanish kelishik qo'shimchalari variantlarining tanlanishida, ayniqsa, seziladi. Masalan, qaratqich kelishigining *-(i)m* (*Axir hayajonlar o'zligim manim/Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon. K.Bahromova*), *-n* (*Qanday ko'rkam qizlar a v l o d i n /Xassos didi va shoir dili. Zulfiya*), *-ing* (*Shavqimning shuhrasi boshing uza zar tora fido, / Ko'ngluming mahzanigul orazi gulnora fido. Joniy*).

So'roq gaplarning ritorik turi, undov gaplar, his-hayajon gaplar ham so'zlashuv va badiiy uslubga xos. Bu uslubdagi gap qurilishi ham ma'lum darajada farqlanadi. Masalan, rasmiy va ilmiy uslublarda ko'proq qo'shma gaplar, ularning bog'langan va bog'lovchisiz turlari, so'zlashuv uslubida sodda gaplar, ayniqsa, ularning to'liqsiz shakli ishlatilishi xos bo'lsa, ommabop va badiiy asarlarda gapning har ikki turi ham aralash holda kelaverishi mumkin. To'liqsiz gaplar dramatik asarlarda, xususan dialogik nutqda mahsuldor qo'llaniladi. Bir bosh bo'lakli gaplarning shaxsi noaniq turi, atov gaplar, so'z-gaplar, kiritma gaplar badiiy matnda ijodkor individual uslubini yuzaga keltiruvchi qulay grammatik vositalar sanaladi [12, 77-96].

Publitsistik uslub (PU) til taraqqiyotida muhim omil sanaladi. Bu uslub o'z navbatida tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanish xususiyatiga bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Publitsistik uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavoblighi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir

bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Publitsistik uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, publitsistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniya, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, feleton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi.

T.Qurbonovning kuzatishicha, sifatdash affekslar, fe'llarning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik so'roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi. Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Hatto umumiste'moldagi so'zlar ham ommabop uslubda yozilgan matnda atamaga aylanishi mumkin: *ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'yimoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi* singari [33].

Shu o'rinda mazkur uslubda so'z yasash imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Turli metaforik

turg'un birikmalar - *davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo'stligi, mustaqillikni mustahkamlash* singarilarni faol qo'llash ham ommabop uslub tabiatiga mosdir.

So'roq gaplarning faol ishlatilishi, ularning murojaat va dialog shaklda bo'lishi, bunda savol beruvchi ham, javob beruvchi ham muallifning o'zi bo'lishi (*G'urur nima o'zi? Rangi qanaqa? U hammada birday bo'ladimi yoki aksinchami? Menimcha, g'ururli odam mamlakat miqiyosida amalga oshirilayotgan har qanday muvaffaqiyatni o'ziga tegishli deb biladi va undan quvonadi.* Xalq so'zi, 2001-yil 20-sentyabr), uyushiq bo'lakli gaplarga ko'proq murojaat qilinishi (*Chunki o'qituvchi zoti mashaqqatli mehnati, hayotiy tajribasi, beqiyos mehri bilan yosh avlodga faqat ilm-fan sirlarini o'rgatib qolmay, uning yuragida Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, el-yurtga sadoqat kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishda ibrat va namuna bo'ladi.* I.Karimov. O'zbekiston o'qituvchilariga va murabbiylariga tabrik. Xalq so'zi, 2001-yil 29-sentyabr), undovlarning, kirish bo'laklar va kirish gaplarning (*Vaholanki, ular o'z mutaxassisligi bo'yicha qaerga joylashishni bilmay yurishgandi. Albatta, bu bilan muammo bartaraf etildi, deb aytish noto'g'ri bo'lar edi.* Ishonch, 2001-yil 22-sentyabr), shaxsi umumlashgan gaplarning keng qo'llanishi bilan ajralib turadi.

PU tadqiqotchilari unga xos bo'lgan va bir-biridan ajratib bo'lmaydigan asosiy prinsiplar sifatida informativlikni va ta'sir xarakterini inobatga olib, ekspressivlikni qayd etishadi. Ushbu prinsiplar uslubning muhim xususiyatlarini – standartlik va tasviriylik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Bu bir-biriga qarama-qarshi tendensiyadagi hodisalar bir-birini taqozo ham qiladi va yaxlitlikda olib qaraladi. Shuningdek, standart va bo'yoqdorlik, informativlik va emotsionallik oppozitsiyasi ham PUning konstruktiv belgilari sanaladi va ular turli janrlarda turlicha namoyon bo'ladi. A.Abdusaidov «Gazeta janrlarining til xususiyatlari» mavzusida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida standart-antiekspressivlik, ekspressivlik-antistandart formulasi haqida gapirganda ana shu belgilarni nazarda tutgan. PUning hozirjavoblik, targ'ibot-tashviqot xarakteri uning barcha janrlariga

xos materiallarning qisqa vaqt ichida ommaga yetkazilishini taqozo etadi. Bir necha janrlarga oid va turli PUga tegishli materiallar ko‘p sonli jurnalistlar, o‘z va jamoatchi muxbirlar tomonidan tayyorlanadi. Bu jarayondagi vaqt tig‘izligi bayonda ekspressivlikka intilish jurnalistni avvaldan ishlatilib kelinayotgan obrazli so‘z va iboralarga murojaat qilishga majbur qiladi. Shu tarzda PUga xos bo‘lgan baxtimiz qomusi, munosib hissalarini qo‘shmoq, faxrlanish tuyg‘usi bilan, zo‘r qoniqish bilan, alohida mamnuniyat bilan singari nutqiy birliklar tilimizda tayyor holda yuzaga keladi va ular barcha OAVlari tilida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan muhim lingvistik omillar sanaladi. Nutqiy standartlarning afzallik tomoni shundaki, ular materialning tayyorlanishi va uzatilishini ham, omma tomonidan tushunilishini ham osonlashtiradi. Standartlik informativ janrlarda faol bo‘ladi. Adresatga faol ta’sir ko‘rsatish istagidan shakllangan standart birliklar tasviriylikka ham xizmat qilaveradi. Bu tasviriy vositalar OAV tilida o‘z qobig‘iga o‘ralgan holda yashamaydi. Masalan, XX asrning II yarmida publitsistikada sovuq urush, zarbdorchasiga mehnat qilish, sotsialistik musobaqa g‘oliblari, ratsionalizatorlik harakati, staxanovchilik harakati, oq oltinni oltin qo‘llar yaratadi singari jumlar faol qo‘llangan bo‘lsa, hozirda ular ishlatilmay qo‘ydi. Bugun davr talabi bilan yangi so‘z va iboralar qo‘llanila boshladi: barkamol avlod orzusi, domino effekti, ijobiy ma’nodagi portlash effekti, ma’naviy jasorat, oila bekati, sog‘lom turmush tarzi, O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat kabi. Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z chiqishlari va asarlarida mustaqillik so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi jumalarni qo‘llagan: “Mustaqillik” ordeni, mustaqillik – mas’uliyat, mustaqillik – muqaddas ne’mat, mustaqillik asri, Mustaqillik bayrami, mustaqillik daraxti, mustaqillik deklaratsiyasi, mustaqillik ideallari, mustaqillik imorati, mustaqillik inshootlari, mustaqillik istiqboli, mustaqillik yo‘li, mustaqillik karvoni, Mustaqillik kubogi, Mustaqillik kuni, Mustaqillik maydoni, mustaqillik mafkurasi, mustaqillik ma’naviyati, mustaqillik muzeyi, mustaqillikni mustahkamlash, mustaqillik ne’matlari, mustaqillik obyektlari, mustaqillik odimlari, mustaqillik paradi, mustaqillik ruhi, mustaqillik samaralari, mustaqillik sarchashmalari, mustaqillik tafakkuri, mustaqillik shabadasi, mustaqillik sharofati, mustaqillik g‘oyalari,

mustaqillik havosi, mustaqillik himoyachilari, mustaqillik – huquq, milliy mustaqillik, siyosiy mustaqillik singari.

Demak, davrlar o'zgarishi, jamiyat taraqqiyoti, binobarin, odamlar dunyoqarashining o'zgarishi tasviriy vositalarning doimo yangilanib turishini taqozo qiladi va u bilan bog'liq tarzda PU tasvir vositalarining sifati ham o'zgarib boradi. Til qurilishi prinsiplari esa o'zgarmasdan qoladi. Jurnalistning stilistik mahorati ham ana shu jarayon bilan, zamon talablaridan kelib chiqib tasviriy vositalarni qo'llash bilan bog'liq. Tasviriylik va ekspressivlik publitsistik matnlarda bajaradigan vazifasiga ko'ra bir-biriga juda yaqinlashsa ham, mazmunan bir-biridan farqlanadi. Tasviriylik publitsistik matnlarning jozibali va ta'sirchan bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ekspressivlik targ'ibot va baho munosabatiga borib taqaladi va ular matnning mazmun-mohiyatiga ko'ra leksik-grammatik va stilistik vositalarning qo'llanishini talab etadi.

OAVlari materiallarining davriyligi va qisqa muddatgaligi, millionlab tinglovchilar, tomoshabinlar va o'quvchilar ommasiga qaratilganligi bir lahzada qabul qilinadigan, yorqin ko'zga tashlanadigan tasviriy va ekspressiv vositalarni talab qiladi. Aytilganlardan PU asosida til vositalaridan foydalanishdagi baholash prinsipi yotishi; publitsistika tilida logik va obrazli ibtidoaning organik uyg'unligi, mulohazalarning umumlashganligi, ilmiy bayonning isbotlash xususiyati, badiiy tasvirning obrazlilikgi uyg'unlashishi ma'lum bo'ladi. Xullas, publitsistika tili xabar uzatish xususiyati, mantiqiyliigi va emotsionalligi bilan nutq uslublari doirasida alohida tizimni tashkil etadi. Publitsistik matn shakllari. PU o'zbek tili NULari tizimida kitobiy uslub sifatida qaraladi. Unda amal qiladigan barcha me'yorlar adabiy til me'yorlari doirasida bo'lishi taqozo etiladi. Publitsistikaga oid ayrim janrlarning so'zlashuv jarayoni bilan bog'liqligi unda SUGa oid xususiyatlarning namoyon bo'lishiga ham olib keladi. Har ikki uslub xususiyatlari uyg'unlashgan holda yuzaga chiqishidan qat'iy nazar PU kitobiy uslub va SUNing etaloni sifatida omma uchun adabiy nutq namunasi vazifasini o'taydi.

Bu uslublarga bog'liq ravishda publitsistik matnlar yozma va og'zaki shakllarda namoyon bo'ladi. Ammo yozma shakldan foydalanish ustunlik qiladi.

Siyosiy sharhlovchilar, komentatorlar, eshittirishni olib boruvchilar, diktorlarning chiqishlari va suhbatlariga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi – qog‘ozga tushiriladi. Hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshiriladigan, spontan nutqdan foydalanish undan keyingi o‘rinda turadi. Ba’zi holatlarda bu ikki shakl aralash holda keladi. Siyosiy-publitsistik nutqning bu ko‘rinishidan ko‘pincha davlat rahbarlari foydalanadilar.

Publitsistika tufayli, radio va televideniye tilida tez-tez murojaat qilib turilishi natijasida nutqning og‘zaki shakli faqat maishiy faoliyat doirasida qolib ketmadi, u so‘zlashuv va kitobiy nutq doirasida ham amal qila boshladi. Deyarli kitobiy vositalar qo‘llaniladigan ilm-fan, rasmiy axborot, publitsistikaga ham kirib bordi. Bu esa kitobiy so‘zlarni o‘zaro yaqinlashtirishga, faollashtirishga va jadallashtirishga xizmat qildi. Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, publitsistika va jurnalistika mutlaq bir uslubga xos bo‘lgan usullardan foydalanayotgan emas. Unda nutqning hozirgi o‘zbek tili keng qamrovli tizimidagi barcha - kitobiydan (ilmiy , rasmiy, publitsistik, badiiy) tortib, SNgacha (adabiy-so‘zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq) elementlari keng qo‘llanilmoqda.

Publitsistik uslubning o‘zbek tilidagi boshqa funksional uslublarga munosabati. PU ma’lum ma’noda oraliq uslub sanaladi. Buning ma’nosi shuki, mazkur uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta’sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo‘llanilishi bilan BUga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo‘llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi.

Adresat ongi va hissiyotiga ta’sir o‘tkazish vazifasi PU va BUni funksional jihatdan birlashtiradi. Ta’sir o‘tkazuvchi lingvistik vositalar bu uslublarning har ikkalasida ham umumiy bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu vazifa ularni bir-biridan ajratadi ham. Chunki ularning ta’sir ko‘rsatishdan maqsadlari turlicha bo‘ladi. PUga xos bo‘lgan jangovarlik, hozirjavoblik, axborot uzatishdagi vaqtning tig‘izligi adresantga tezlikda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq ta’sir o‘tkazish vazifasini qo‘yadi. BUda esa adresatning ruhiy olamiga, qalbiga ta’sir o‘tkazish orqali uning badiiy-estetik, ma’naviy-ma’rifiy olamini boyitish va zavqlantirish maqsad qilib qo‘yiladi.

Uslub mohiyatiga asoslanib aytish mumkinki, PUda ekspressivlikka erishishning vositalari boshqa uslublarga qaraganda ko‘p. Mana shu jihatlari bilan u BUga juda yaqinlashadi. Shuning uchun ham mazkur uslubning lingvostilistik xususiyatlari haqida gapirganda asosiy e‘tibor ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi tasviriy vositalarga qaratiladi. Oshkora munosabat, subyektiv baho PUning muhim xususiyati sanaladi va bu bilan BUdan farqlanadi. Badiiy mantlarda muallif g‘oyasi va fikri boshqalarning nutqi orqali, PUda esa bevosita muallif nutqi orqali ifoda etiladi. Publitsistik bayon usuli va kompozitsion qurilishi ham bu vazifalarga bog‘liq tarzda reallashadi. Masalan, publitsistik matnda bayon 1-va 3-shaxs nomidan berilishi me‘yoriy holat sanaladi. Muallif «men»i bayon 3-shaxs tilidan berilganda ham aniq bilinib turadi. BUda esa hikoyachi «men»i bilan muallif «men»i hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi. Hikoyachi obrazining kiritilishidan stilistik maqsad ko‘zlanadi. Boshqacha aytganda, 3-shaxs tomonidan hikoya qilish muallifga ma‘lum uslubiy qulayliklar tug‘diradi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo‘llanilishi bilan IUga o‘xshaydi. Shuningdek, ifodadagi qisqalik, lo‘ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni IU bilan yonma-yon qo‘yadi. Axborot xarakteridagi materiallarda umumtil vositalari faol uchraydi va bayonning neytralligi, til materialini tanlashdagi mushtraklik uni IU va RUlarga yaqinlashtiradi. Aniqlik va obyektivlik ruhi ustunlik qiladi. Joy va kishi nomlari, hisob-kitob yoki aniq ma‘lumotlarni ifodalaydigan raqamlar, abbreviaturalar, mavzuga oid terminologiya ko‘p qo‘llaniladi.

Radio va televideniyaedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda SU elementlari ham ba‘zan aralashib ketishi mumkinligini ko‘rsatadi. M.N.Kojina ta’kidlaydiki, gazeta janrlariga bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladigan uslubiy rang-baranglik tarqoq holda mavjud bo‘lmaydi. Ular umumiy nuqtada birlashadi. Masalan, bosh, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop maqolalar, taqrizlar, intervyu va boshqalar bayonda tahlil xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, ekspressiv ta’sir o‘tkazuvchi, publitsistik va baholash momentlari bilan; ocherklar, pamfletlar, fel’yetonlar badiiylilik xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, publitsistikligi bilan

o'sha uslublardan farqlanadi.

Kichik bir xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib borishiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

II BOB.

PUBLITSISTIK USLUB VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Publitsistik uslubning o‘rganilishi

XX asr oxiri XXI asr boshlarida yuzaga kelgan geosiyosiy muhit til siyosati va til ta’limiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Milliy iftixor, o‘z-o‘zini anglash hissi tobora kuchayib bordi. Odamlarning tafakkuri, hayotga bo‘lgan munosabatlari o‘zgara boshladi. Milliy an’analar, milliy madaniyatni tiklashga urinish, milliy til obro‘cini kuchaytirish muammolari dolzarb tus oldi. Jamiyatda yuz berayotgan bunday o‘zgarishlar, milliylikka intilish, tabiiyki, tilning lug‘at tarkibiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy yevrilishlar, qizg‘in jarayonlar asnosida ba’zi yangi so‘zlar iste’molga kirgan bo‘lsa, ayrimlari esa, aksincha, butkul iste’moldan chiqib ketdi. Bu jarayonni baholashda gazeta matnlarini o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, bosma ommaviy axborot vositasi sifatida gazetaning o‘rni va ahamiyati beqiyos bo‘lib, uning o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot yo‘li mavjud. Gazeta terminining yuzaga kelishi to‘g‘risida bir qancha ilmiy manbalarda ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularda rang-barang fikrlar bayon qilingan. Biz deyarli har kuni ishlatadigan “gazeta” so‘zining asl ma’nosi nima? Bu so‘z qachon va qay tarzda tilimizga kirib kelgan?

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, gazetalarning ilk ko‘rinishi qadimgi Rim antik davrlaridayoq paydo bo‘lgan. Shaharda va dunyoda bo‘layotgan voqealar yupqa qilingan yog‘och taxtalarga bir nechta nusxada o‘yib yozilgan va odamlar gavjum bo‘ladigan katta maydonlarga osib qo‘yilgan. Siyosatchilar va shaharning mashhur kishilariga esa shaxsan yetkazib berilgan. “Rim xalqi haqida kunlik voqealar” deb nomlangan bunday ma’lumotlar taxtasi davlat tepasiga Yuliy Sezar kelganidan keyin yanada rivojlantirilgan. Undan keyingi yuz yilliklar davomida yangiliklar nashrining shakl-shamoyili 1450-yilgacha Germaniyada Iyogann Gutenberg tomonidan bosma dastgoh ixtiro qilingunga qadar deyarli o‘zgarmagan.

Gazetalar XVII asrning dastlabki yillaridanoq zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan. Biroq ular hozirgidek “gazeta” nomi bilan atalmagan. Bundan roppa-rosa 379-yil oldin, ya’ni 1631-yil 30-may kuni Fransiyada “La Gazette” nomli gazeta chop etila boshlangan va aynan shundan keyin “gazeta” so‘zi ko‘plab Yevropa tillariga vaqtli yangiliklar bosma matbuot nashrini anglatuvchi atama sifatida kirib keldi. “Gazeta” nomi esa o‘sha davrdagi Italyan mayda pul birligi bo‘lgan “gazzetta” (“gaseta”) bilan bog‘liq. Sababi shundaki, XVI asrda yashagan o‘ziga to‘q odamlar jamiyatga oid xabarlar yozilgan kunlik qo‘lyozma varaqalarni (saroy hayotiga oid voqealar, savdo yangiliklari va boshqa qo‘shni shaharlar haqidagi ma’lumotlar) o‘qish uchun bir gazeta, ya’ni eng kichik italyan tangasi evaziga gazetani sotib olishgan. Tanga nomi esa unda tasvirlangan hakka qush (italyancha “gazza”)dan olingan.

Tarixchilar fikriga ko‘ra, “La Gazette” hozirgi bosma ommaviy axborot vositasi an’analari va standartlariga mos keladigan birinchi Yevropa gazetalaridan hisoblanadi. Ushbu nashrga fransuz zodagoni vao‘z navbatida, shifokor ham bo‘lgan Teofast Renodo tomonidan asos solingan. U o‘z gazetasi uchun o‘sha davrdagi Fransiya qiroli Lyudovik VIIdan mamlakat hududida axborot tarqatish huquqini beruvchi maxsus patentni ham qo‘lga kiritgan. “La Gazette” Fransiya ijtimoiy-siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Hatto qirolning o‘zi bu nashr uchun mamlakat xalqaro va ichki siyosati bilan bog‘liq muhim voqealarga bag‘ishlangan maxsus xabarlar yozgan.

Shu tariqa “gazeta” rus tili orqali o‘zbek tiliga ham kirib kelgan. Hozirda bu so‘z jurnalistika atamasi sifatida bir necha tillarda, jumladan, Alban, Belarus, Vetnam, Gruzin, Malta, Normand, Ozarbayjon, Osetin, Polyak, Rus, Suaxili (Sharqiy Afrika), Tatar, Tojik, Turk, Turkman, Ukrain, Qirg‘iz, Qozoq va boshqa tillarda qo‘llaniladi.

Bizda, davriy bosma ommaviy axborot vositasi ma`nosida ishlatiladigan ushbu termin nafaqat, termin, balki tushuncha sifatida ham o‘z mazmun-mohiyatini o‘zgartirgan.

Yevropada ommalashib ketgan gazeta Rossiyada XVIII asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo'lgan bo'lib, dastlab podsho Pyotr Ining murojaat, farmon va e'lonlarini xalqqa yetkazib turgan. Shunday sababga ko'ra yuzaga kelgan birinchi rus gazetasi "Vedomost" hisoblanadi. Markaziy Osiyoda matbuotning paydo bo'lishi va birinchi gazetaning nashr qilinishi ham rus madaniyatining ta'sirida yuzaga kelgan. XIX asr 70-yillarining boshlarida yurtimizdagi mustamlakachi rus ma'murlari tashabbusi bilan dastlab o'zbek gazetasi "Turkiston viloyati gazetasi" 1871-yil Toshkentda chop etila boshlangan. Shunday qilib, o'zbek jurnalistikasi va matbuoti tarixi aynan shu nashr bilan bog'liq bo'lib, birinchi o'zbek jurnalistlari sifatida Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatni keltirish mumkin. XIX asrning so'ngi besh yilligi va XX asr boshlari o'zbek matbuoti tarixida, xususan, gazetachilikda nihoyatda ahamiyatli davr hisoblanadi. Bog'chasaroyda nashr qilina boshlangan "Tarjumon" gazetasidan o'rnak olib jadid harakati vakillari bir necha nomdagi gazetalarni nashr eta boshladilar. "Taraqqiy", "Osiyo", "Xurshid", "Shuhrat", "Hurriyat", "Sadoiy Turkiston", "Sadoiy Farg'ona", "Samarqand", "Oyna" kabi gazetalar shular jumlasidandir. Bu davrga kelib, o'zbek gazetalari nafaqat axborot yetkazib berish, balki tashviqot, targ'ibot vazifalarni ham bajara boshladilar. O'zbek jurnalistikasining shakllanishida "Туркистанские ведомости", "Turkiston viloyatining gazetasi" kabi rasmiy gazetalar muhim rol o'ynadi. Abdulhamid Cho'lpon, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Sattorxon Abdug'afforov, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy hamda Ziyo Said kabi ma'rifatparvar insonlar milliy matbuotimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar. Chunki bu davrga kelib o'lkada yuzdan ortiq o'zbekcha va ruscha gazetalar chiqa boshlagan edi. Ularning ko'pchiligi Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Buxoro va Farg'ona tarixida munosib iz qoldirgan.

O'zbek jurnalistikasi fani rivojini baholashda T.Ernazarov, O.Tog'ayev, R.Muhammadiyev, O.Saidov singari olimlarning xizmatlari nihoyatda katta. Mustaqillik yillarida nashr etilgan "Turkiston matbuot tarixi", "O'zbekiston

jurnalistikasi tarixi” kabi kitoblar respublikamiz matbuotining uzoq va yaqin tarixiga oid manbalarni o‘zida to‘la aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Yurtimizda gazeta chop etish an‘anasining boshlanishi va rivojlanishining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, aynan o‘sha davrdan boshlab hozirgi adabiy tilimiz qat’iy me‘yorlasha boshladi hamda ommaviylik kasb etdi. Shuning uchun ham ko‘pgina olimlar o‘z tadqiqotlarida hozirgi adabiy tilimiz taraqqiyotining dastlabki bosqichi sifatida yurtimizda matbuot yuzaga kelish davrini belgilab ko‘rsatadilar.

O‘zbek tilshunosligida matbuot tilini o‘rganish alohida yo‘nalish sifatida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega. O‘zbek ilmiy tilshunosligi vujudga kelishi bilan deyarli bir davrda gazeta tilini lisoniy tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy ishlar yaratila boshlandi. Gazeta tilini o‘rganishning dastlabki bosqichi sifatida 20-50-yillarni ko‘rsatish mumkin. Bu davrda tilshunos olimlardan V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.Mirzayev, F.Abdullayev va I.Rasulovlarning ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Bu davr gazeta tilini o‘rganishning xarakterli jihati shundan iborat ediki, chop qilingan ilmiy ishlarda asosan gazeta tili leksikasining milliy qatlamlari, ya’ni o‘z va o‘zlashma birliklar va leksikografik xususiyatlari tadqiq qilindi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida gazeta tilini o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi ilmiy ish ruscha-o‘zbekcha lug‘at bo‘lib, gazeta materiallari matniga asoslangan va yirik tilshunos K.K. Yudaxin tomonidan yaratilgan⁴.

“1905-1917-yillarda o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek davriy matbuotida (1945-1950) baynalminal so‘zlar” kabi tadqiqotlarda esa gazeta matnida qo‘llanilgan o‘z va o‘zlashma leksik qatlam birliklarining lingvistik xususiyatlari va iste‘mol imkoniyatlari o‘rganilgan⁵.

O‘zbek tilshunosligida mazkur soha bilan shug‘ullangan mutaxassislarning ta’kidlashicha, publitsistik uslub o‘zbek adabiy tilining nutq uslublari tizimida, asosan, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo‘ldi. 1883-yildan boshlab o‘zbek tilidagi dastlabki gazetasi bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazetasi”

⁴ Юдахин К.К. Ўзбекча-русча луғат. –Тошкент, 1927.

⁵ Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950). –Андижан – Ташкент, 1951.

chiqa boshladi. XX asrning boshlarida esa matbuot ishlari ko‘lami “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Hurriyat”, “Oyna”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” kabi gazeta va jurnallar hisobiga kengaydi va Furqat, Hamza, Ayniy, Cho‘lpon, Fitrat, Sattorxon singari yozuvchilar faoliyati tufayli takomillashib bordi.

Shuningdek, o‘zbek publitsistikasining tarixiy ildizlari ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning ijod qilgan davrdan boshlanadi, degan qarashlar ham mavjud: “Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida publitsistikaning xususiyatlari uchraydi. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Sayid Hasan Ardasher va boshqalar haqidagi adabiy portretlarini publitsistik ocherklar, deb atash mumkin. Navoiy nasriy asarlarini chuqurroq tadqiq etish uni o‘zbek badiiy publitsistikasining asoschisi, deb atashga imkon beradi”.

Publitsistikamizning tarixiy ildizlari bu qadar uzoqqa borib taqalishiga qaramasdan, uni o‘zbek tili uslublaridan biri sifatida maxsus o‘rganish keyingi davrlarga to‘g‘ri keldi. T.Qurbonovning 1987-yilda himoya qilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining publitsistik stili“ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida uning lingvostilistik xususiyatlari to‘g‘risida ilk bor ilmiy xulosalar bayon qilindi.

To‘g‘ri, o‘zbek tilshunosligida bu tadqiqotgacha ham uslubiyat haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan edi. Masalan, V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, M.Mirzayev, F.Abdullayev, I.Rasulov, A.Abdunazarov, G‘.Karimov, K.Yusupov va boshqalarning tadqiqotlarida ushbu mavzuga aloqador bo‘lgan fikr-mulohazalar aytilgan yoki uning muayyan bir janrining til xususiyatlari o‘rganilgan. Lekin ularning birontasi ham publitsistik uslubga xos bo‘lgan lingvistik va ekstralingvistik omillarni yaxlit va atroflicha tahlil etish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan edi. Bu vazifa yuqorida tilga olingan dissertatsiya ishida amalga oshirildi va keyinchalik mavzuni chuqurroq tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar birin-ketin paydo bo‘la boshladi. Bular orasida A.Abdusaidovning tadqiqotlari e‘tiborga molikdir. Olimning gazeta janrining tili va uslubini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va e‘lon qilingan alohida ishlari o‘zbek tili stilistikasi taraqqiyotiga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shildi.

Gazeta tilini o'rganishda ikkinchi muhim bosqich sifatida XX asrning 60-80-yillarini ko'rsatish mumkin. Bu bosqichda asosiy omil sifatida grammatik xususiyatlarni o'rganishni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, yangi tadqiqot metodidan foydalanib ilmiy ishlar yaratilganki, bu holat ushbu davrning xarakterlovchi omili sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, "Mushtum" jurnalining leksika va frazeologiyasi", "Turkiston" viloyati gazetining sintaksisi" va matbuot tilining morfologik xususiyatlariga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar paydo bo'ldiki, ular matbuot tilini o'rganishda dasturulamal bo'lib xizmat qildi. O'zbek publitsistik uslubi, gazeta tili va uslubiy norma muammolariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy, dissertatsion tadqiqotlar yaratildi. Ular gazeta tilini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini yaratishga xizmat qildi. Ushbu davrning yangiligi sifatida, shuni a'lohida ta'kidlash lozimki, gazeta tilini va umuman matnni o'rganishning statistik metodi aynan shu davrdan boshlab qo'llanila boshlandi. Gazeta matni materiallari asosida o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib, yaratilgan alfavitli-chastotali hamda chastotali lug'atlar yaratgan olimlar I.Kissen va S.Muhammedovlarning ishlari tahsinga sazovordir.

Shuningdek, "Gazeta tilining ikki xususiyati", "Gazeta tilida standart konstruksiyalar", "Gazeta sarlavhasi haqida", "Sarlavhalar sintaksisi haqida", "O'zbek tilida frazeologizm sarlavhalarining stilistik xususiyatlari haqida", "Gazeta sarlavhasi", "Publitsistik janrlar" kabi tadqiqotlar yuzaga keldiki, ular tilshunosligimizda gazeta tilini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilayotir. O'zbek tilshunosligida gazeta matnlari A.K.Borovkov⁶, V.V.Reshetov⁷, keyinchalik M.Mirzayev⁸, B.Turdaliyev⁹, M.Rahmonov¹⁰, G'.Karimov¹¹,

⁶ Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. – Ташкент, 1940; Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит. -Ташкент, 1940, № 7.

⁷ Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы. – В кн: Проблемы языка. – Ташкент, 1934, 41-51с.

⁸ Мирзаев.М.М. Интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950). – Андижан-Ташкент, 1951.

⁹ Турдалиев Б. Морфологические особенности языка периодической печати (1905-1917): автореф.дис....канд.филол.наук..-Ташкент, 1969. 24 б.

¹⁰ Рахмонов М. Синтаксические особенности языка газеты «Туркистон вилоятининг газети»: Автореф.дис....канд.филол.наук..-Ташкент, 1971.-34 б.

¹¹ Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 20-30-годов: Автореф.дис....канд.филол.наук..-Ташкент, 1972.-32 б.

A.Boboyeva¹², A.Abdusaidovlar¹³ tomonidan o'rganilgan. Bu olimlarning izlanishlarida gazeta tilidagi so'zlar, iboralar, o'zlashmalar, kelishik shakillarining uslubiy xususiyatlari, sarlavhalarining struktur-stilistik tomonlariga e'tibor qaratilgan.

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida matbuot tilini o'rganish bo'yicha bir qator jiddiy ishlar qilingan. Shunga qaramasdan, bu sohaning bir qator dolzarb muammolari mustaqillik davrining talab hamda ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yanada kengroq va chuqurroq tahlilga muhtojdir.

Mustaqillik davri gazeta tilini o'rganish alohida katta davrni tashkil qiladi. I.Toshaliyev, A.Boboyeva, N.Abdusamadov, O.Tog'ayev va A.Abdusaidov kabilarning ilmiy tadqiqotlari shu davrning mahsuli hisoblanadi. Gazeta janrlarining tili va uslubini o'rganishga doir tadqiqotlar orasida A.Abdusaidovning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Leksik dubletlar va ularning izohi", "Gazeta tilida frazeologizmlar", "Gazeta tilining leksik-stilistik xususiyatlari", "Frazeologizmlar – matbuot tilida ta'sirchan vosita", "Matbuotda adabiy normaga rioya qilish", "Matbuot tili madaniyati", "Gazeta janrining tili va uslubi" kabi tadqiqotlarida gazeta tilini o'rganishning umumnazariy masalalari, so'z va ibora qo'llash bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar, adabiy me'yor talablarining gazeta tilida bajarilishi kabi mavzular atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, olimning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham gazeta tilini tadqiq qilishga bag'ishlangan bo'lib, doktorlik dissertatsiyasi gazeta janrlarining janriy xususiyatlarini ilmiy-nazariy tomondan o'rganishda katta yutuqlardan biri hisoblanadi¹⁴.

Gazeta tilini o'rganishda tilshunos olim O.Tog'ayevning "Publitsistik janrlar" nomli o'quv qo'llanmasi muhim manba hisoblanadi¹⁵. Ilmiy tadqiqot uch bobdan iborat bo'lib, xat publitsistikasi, ocherk va feleton kabi badiiy-publitsistik

¹² Бобоева А. Газета тилида таъсирчанликни таъминловчи айрим нуткий воситалар //Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент, 1976, №1,62-66-бет.

¹³ Абдусайдов А. Язык газеты и литературная норма : Автореф.дис....канд.филол.наук. - Ташкент, 1988. – 21 б.

¹⁴ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.докт.дис. автореф. – Самарқанд, 2005.- 48 б.

¹⁵ Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи,1976. - 180 б.

janrlarning lisoniy xususiyatlari, strukturasi, turlari va leksik birliklarning qoʻllanishi bilan bogʻliq lisoniy xususiyatlar toʻlaligicha tadqiq etilgan.

N.Abdumuzizovaning “Akademiya” nashriyotida chop etilgan “Turkiston matbuoti tarixi” (2002), “Oʻzbekiston jurnalistikasi tarixi” (2002), “Oʻzbekiston ommaviy axborot vositalari” (2003), “Matbuot va maʼnaviy meros” (2004), “Matbuot va Sohibqiron Amir Temur abadiyati” (2005), “Matbuot va soʻz erkinligi – oliy qadriyat” (2006), “Tafakkur shajarasi” (2007), “Mustaqil Oʻzbekiston jurnalistikasi tarixi” (2008), “Milliy jurnalistika tarixi”(ikki jildlik, 2009), “Matbuot ziyosi (Fargʻona viloyati matbuotiga chizgilar)” (2009), “Toshkent matbuoti” (2010) singari monografiya va risolalarida ham gazeta tili va uslubi bilan bogʻliq ilmiy ishlar yaratilgan.

Keyingi yillarda N.Abdumuzizova, H.Akbarov, X.Doʻstmuhamedov, S.Jabborov, N.Joʻrayev, Q.Irnazarov, M.Xudoyqulov, F.Moʻminov, P.Moʻminova, H.Saidov, O.Toshboyev, D.Teshaboyeva, A.Pardayev, F.Roʻziyev, X.Mamadaliyev, O.Oʻsarov kabi olimlarning milliy jurnalistika tarixi va rivojlanish bosqichlari, matbuot nazariyasi, janrlari, jurnalistik faoliyatning ijtimoiy va axloqiy masalalari oʻrganilgan salmoqli ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Mazkur tadqiqotlarning jurnalistika sohasini rivojlantirish, OAV faoliyati samaradorligini tashkil etishdagi roli, gazeta tilini oʻrganishdagi oʻrni ham beqiyos¹⁶.

Jadidlar publitsistikasida janrlar xilma-xilligi va rivojini oʻrganish mobaynida oʻzbek jurnalistikasining tarixiga bevosita nazar tashlash va mazkur jarayonlar tadrijida dastlabki janrlarning yaratilishi va bugungi kunga qadar qanday oʻzgarishlarga yuz tutganligi aniqlash mavzuni yanada yorqinlashtiradi.

¹⁶ Masalan: Abdumuzizova N. Mustaqil Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002; Abdumuzizova N. Mustaqil Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2007; Досмухамедов Х.Н. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида. 1991-2008 йиллар): Филол.фан.докт.... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ. 2008; Оммавий ахборот воситалари назарияси. – Тошкент: Университет, 1999; Усаров О.А. Оммавий ахборот воситаларида суд процессларини ёритиш муаммолари (назарий-методологик таҳлил). Филол.фан.номз. дис.автореферати. – Тошкент, 2009. – 27 б.; Маматова Я.М. Ўзбекистон даврий матбуоти: тизими трансформацияси, фаолияти тенденциялари ва муаммолари (1991-2010 йиллар материаллари асосида). Филол.фан.докт... дис .автореферати. – Тошкент, 2011. - 56 б. ва бошқалар.

Mavzuning keng qamrovda yoritilishi jurnalistikaning kelib chiqishi va taraqqiyot jarayonlarini ko'rsatib beradi.

Ta'kidlash joizki, ayni damda gazeta va jurnallarda janrlar xilma-xilligini kuzatish amri mahol bo'lib bormoqda. Shu qatorda, publitsistik janrlarning ayrimlariga murojaat umuman yo'qolib bormoqda. Aynan shu muammolarni hisobga olgan holda, publitsistikaning paydo bo'lishi va undagi janrlar taraqqiyotini sinchiklab o'rganish kam qo'llanilayotgan janrlarga yana qaytadan murojaat etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

A.Abdusaidov tasnifi, garchi gazeta doirasida chegaralangan bo'lsa-da, mukammalligi bilan e'tiborga molik. Bu tasnifda avval PUning ko'rinishlari ajratiladi: axborot (informatsion), tahliliy (analitik) va badiiy-publitsistik. O'z navbatida ularning yana quyidagi janriy bo'linishlari sanab o'tiladi:

1. Axborot (informatsion) janrlar: xabar (xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy-satirik xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabarlar); reportaj (shu kungi voqealar haqidagi reportaj, mavzuli reportaj, muammoli reportaj); hisobot (oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot); intervyu (intervyu-monolog, intervyu-lavha, portret-intervyu, davra suhbat, matbuot konferensiyasi).

2. Tahliliy (analitik) janrlar: korrespondensiya (axborot korrespondensiya, korrespondensiya, tahliliy korrespondensiya, muammoli korrespondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, portret korrespondensiya, mulohaza-korrespondensiya); maqola (bosh maqola, nazariy maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, tashviqot xarakterdagi maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola), taqriz; sharh (umumiy sharh, mavzuli sharh, axborot sharhi, matbuot sharhi); obzor (mavzuli obzor, umumiy obzor, axborot obzor); xat (gazetxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati); kuzatish (umumiy kuzatish, mavzuli kuzatish).

3. Badiiy-publitsistik janrlar: lavha; ocherk (ocherk-portret, safarnoma (yo'l ocherki), muammo-ocherk, ocherk-lavha); fel'yeton (hujjatli fel'yeton) kabilar.

Publitsistikaga oid materiallarning sof publitsistik (reportajlar, obzorlar),

abadiy-badiiy (ocherk, felyeton), rasmiy (axborot) xarakterda bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmagan holda A.Abdusaidov tasnifini o'zbek OAVlari materiallari uchun tatbiq etish mumkin deb hisoblaymiz. Ammo ularning satirik xabar, hisobot (oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot); korrespondensiyaning muammoli korrespondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, portret korrespondensiya, mulohaza-korrespondensiya; intervyu-monolog, intervyu-lavha, portret-intervyu; umumiy kuzatish, mavzuli kuzatish kabi janrlari o'zbek publitsistikasida mavjudligi masalasi aniqlikni talab etadi.

Umuman, o'zbek tilshunosligi va jurnalistikasida keyingi yillarda OAV tili va uslubi, janrlar xususiyatlarini o'rganish sohasida tadqiqotlar yaratish ancha faollashganini ko'rish mumkin.

2.2. Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyati

Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha sohalar singari jurnalistika sohasida ham tubdan islohatlar o'tkazildi. Zamonaviy, milliy ruh bilan so'g'orilgan materiallarni tayyorlash uchun jurnalistlarimiz zimmasiga maqsad va vazifalar yuklatildi. Ayni damda jurnalistlarning huquqini himoya qiluvchi bir qator qonunlar ham ishlab chiqildi. Bu esa journalist va muxbirlarning erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlarning biridir.

Hozirgi kunda yaratilgan bu kabi imkoniyatlar bir qatorda jurnalistlarimiz zimmasiga haqqoniy, ochiq va oshkorolik asosida tayyorlangan materiallarni tezkorlik bilan keng jamoaga yetkazib berish vazifalari yuklatilmoqda. Shu tufayli ham istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab, jurnalistlarmiz zimmasiga yangidan-yangi vazifalar qo'yildi. Muxbirlarimiz tomonidan chop etilayotgan maqolalarning mazmuni gazetxon ijtimoiy-siyosiy ongini, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shu xususda fikr yuritib yozadi: "Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari

ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da‘vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”¹⁷. Shu ma’noda yozuvchining publitsistik ijodini, “haroratli so‘zi”ni o‘rganishga zarurat bor. Zero, har qanday davr yoki millatning madaniy hayotida publitsistikaning ahamiyati beqiyos.

Zamonaviy dolzarb mavzulardagi ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni qamrab oladigan publitsistikaning vazifasi ijtimoiy fikr uyg‘otish va uni shakllantirish, ma’lum maqsadga yo‘naltirish, hujjatli fakt-ma’lumotlar asosida voqelik manzarasini yaratishdan iboratdir.

O‘zbek tili stilistika tizimida publitsistik uslubning alohida o‘rin va mavqega egaligi uning ijtimoiy hayotda keng ko‘lamdagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniyat va sport kabi sohalarga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Mustaqillik davrida yurtimizda ommaviy axborot vositalariga ko‘rsatilayotgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada tegishli qonunlar va qarorlar qabul qilinib, matbuot erkinligining huquqiy asoslari yaratildi. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida “Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo‘lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalari” hisoblanishi ta’kidlanib, uning 3-moddasida “Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri va e’tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega” ekanligi, 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yildi.

Eng muhimi, ommaviy axborot vositalarining faoliyati hamisha mamlakatimiz birinchi rahbarining diqqat markazida turibdi. I.A.Karimov nufuzli yig‘ilishlarda, xorijiy jurnalistlar bilan bo‘lgan uchrashuvlarda ommaviy axborot vositalarining

¹⁷Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т: Ўзбекистон, 2009. –Б.11-12.

roli, jamiyat hayotida tutgan o'rnini haqida qayta-qayta gapiradilar. Masalan, Bi-Bi-Si muxbiri X. Ubaydullayevning "O'zbekiston matbuoti va televideniyesiga bugun Siz qanday baho bergan bo'ladingiz", degan savoliga Yurtboshimiz shunday javob bergan edilar: "Matbuot va axborot vositalarini to'rtinchi hokimiyat sifatida e'tirof etish huquqiy davlat oyoqqa turishining muhim shartlaridan biri ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Modomiki, O'zbekiston erkin, ochiq huquqiy demokratik davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu shartlarni so'zsiz bajarishi kerak" (1996-yil 12-aprel). Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida (2000-yil 22-yanvar) esa bu vosita vakillari oldiga aniq vazifalar qo'yib, "Bunda, men yana takror aytaman, ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanishi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda eng ta'sirchan omil bo'lishi kerak. Bu, eng avvalo, har bir fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda qilish, axborot olish, davlat va jamiyat qurilishining o'ta muhim masalalarini muhokama etishda faol qatnashish huquqini ta'minlash demakdir", degan edilar.

Darhaqiqat, mamlakatimiz hayotida juda katta ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy vazifani bajaradigan, targ'ibot va tashviqot olib borishda ko'makdosh bo'lgan ommaviy axborot vositalari hamisha islohotlarning oldingi safida bo'lishi, uni amalga oshirishda, mazmun-mohiyatini ommaga tushuntirishda asosiy kuch bo'lishi lozim. Publitsistik uslub borasida olib boriladigan tadqiqotlar esa mazkur soha faoliyatini ilmiy tashkil etishga, tildan foydalanishdagi madaniylik va me'yoriylik darajasining takomillashishiga, binobarin, xalqimiz ma'naviyati va madaniyatining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Publitsistik uslub barcha uslublar orasida eng keyin paydo bo'lgan bo'lsa ham, tildan foydalanishdagi imkoniyatlarining g'oyatda kengligi jihatidan ularning barchasidan yuqorida turadi. Publitsistik matnlarda tilning barcha leksik-grammatik qatlamlariga, uslubiyatlariga xos bo'lgan elementlarni uchratish mumkin. Bu esa publitsistikaning hayotga naqadar yaqinligi va uning bajarib kelayotgan ijtimoiy vazifasi bilan izohlanadi. U ilmiy adabiyotlarda publitsistik

uslub, ommabop uslub, ijtimoiy-publitsistik uslub, gazeta-publitsistik uslub, gazeta-siyosiy uslub, gazeta uslubi singari nomlar bilan atalib kelinmoqda.

Ommaviy axborot vositalari, jumladan, vaqtli matbuot: gazeta va jurnallar hamda radio va televideniye mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida shu qadar muhim rol o'ynamoqdaki, axborot texnologiyalari asrining bugungi taraqqiyotini ularning aralashuvchisiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimiz hayotida, butun dunyoda ro'y berayotgan har qanday dolzarb muammo: siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, madaniy, tarbiyaviy, kundalik-maishiy va boshqa masalalar ana shu vositalar yordamida xalqqa yetkazib berilmoqda. Ayni paytda, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yuksalishiga qaratilgan ulkan targ'ibot va tashviqot ishlari ham asosan ana shu vositalar yordamida olib borilmoqda.

Keyingi o'n yilliklarda jamiyat taraqqiyotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, o'zbek xalqining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida o'zbek publitsistikasi sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Targ'ibot-tashviqot ishlarining mazmun-mohiyati, bir tomondan, yangidan shakllantirilgan milliy g'oya va mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilyotgan tub islohotlar, ikkinchi tomondan esa, jahonda roy berayotgan globallashuv, axborot uzatish va qabul qilishdagi inqilob, turli xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy va harbiy o'zgarishlarga bog'liq ravishda tubdan o'zgardi. Binobarin, publitsistika sohasida tildan foydalanish ham o'ziga xos mazmun va mas'uliyat kasb etdi. Bu esa tabiiy ravishda o'zbek tili publitsistik uslubining yangi qirralari namoyon bo'lishiga olib keldi. Shuning uchun uni davrimizda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonida qaytadan ko'rib chiqish vatahlil etishga zarurat paydo bo'ldi.

Publitsistikaning jamiyat hayotida, uning ma'naviyatini boyitishdagi ahamiyati kattadir. Buni biz tarix va bugungi kunimiz matbuoti misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Fanda, kundalik turmushimizda bo'layotgan har qanday o'zgarish, islohatlar, yangilik, uchrashuvlarni keng ommaga havola etishda publitsistik janrlarning ahamiyati kattadir. Shu boisdan ham mazkur janrlarning

vazifasiga, ifoda materialiga ko'ra bir-biridan farqlovchi xususiyatlari, mezonlari mavjud.

Barchamizga ma'lumki, Insoniyatning hayoti va faoliyati axborot olish, qayta ishlash va saqlash bilan chambarchas bog'liqdir. Axborot olishning birlamchi vositasi sifatida, albatta, matbuot o'ziga xos vazifalarni bajaradi. A.Abdusaidovning "Gazeta janrlarining tili va uslubi"¹⁸ nomli monografiyasida OAV, xususan, vaqtli matbuotning vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatgan:

- informativlik - axborot berish;
- targ'ibot qilish;
- tashviqot qilish;
- tarbiyaviylik;
- reklamalilik;
- ta'sirchanlik.

Ushbu vazifalarni ifoda etadigan publitsistik janrlar bir necha turlarga bo'lib, tasnif qilinadi. Jumladan, A.Abdusaidovning tadqiqotida quyidagicha tasnif keltirilgan:

1. Axborot(informatsion) janrlar.
2. Tahliliy(analitik) janrlar.
3. Badiiy-publitsistik janrlar¹⁹.

Ushbu janrlar ham bir necha turlarga bo'linib tahlil qilingan. Shu o'rinda, termin qo'llash bilan bog'liq munozarali jihatlar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Ya'ni, janr termini matbuot tilini o'rganishga bag'ishlangan asarlarda ham, umumiy tasnifga nisbatan ham, uning ichki bo'linishlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, "badiiy-publitsistik janr" shaklida qo'llanilsa, uning tarkibiy qismi bo'lgan ocherk, feleton janrlariga nisbatan ham janr termini qo'llaniladi. Ushbu terminologik muammo barcha ilmiy lingvistik tadqiqotlarda

¹⁸ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт. дис. автореф. – Самарқанд, 2005; Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. - Тошкент: Тафаккур, 2010; Абдусайдов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. - Самарқанд, 2001. 5-10-б.

¹⁹ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан. докт. дис. автореф. – Самарқанд, 2005, 47-б.

ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish masalasi hozirda publitsistikaning oldida turgan maqsadlardan biri hisoblanadi.

Gazeta janrlari bir-biridan bajaradigan vazifasi, yaratilish maqsadi va ahamiyati jihatidan farqlanadi. Barcha gazeta janrlarining asosini axborot tashkil qilsa-da, ularning yaratilish uslubi va maqsadiga ko'ra turlarga ajratilib kelinadi. Informatsion janrlarda axborot berish vazifasi ustunlik qilsa, tahliliy-analitik janrlarda axborot tahlili, sharh, obzor asosida yaratiladi. Badiiy-publitsistik janrlar esa o'zida ham axborot berish ham badiiy ifodalarni keltirish bilan xarakterlidir. Til uslublarining har ikkalasiga xos xususiyatlari mujassamlashgan ushbu janrda ijtimoiy-publitsistik uslubga xos so'z, ibora va terminlar bilan birga badiiy so'z san'atiga tegishli frazeologizmlar, troplardan keng foydalaniladi.

Mazkur janrlarning barchasining bajaradigan vazifasi uning xususiy jihati bo'lsa, axborot berish, ma'lumotni yetkazish vazifasi esa barcha uslublar uchun umumiy jihat sanaladi. Ular tabiatidagi bunday farqlanishlar, aslida, til va nutq jihatidan farqlansa-da, ularning vazifasi jamiyatda bo'layotgan har qanday islohatlarni, ularni jamiyat hayotidagi foydali jihatlarini, uning kundalik turmushimizdagi o'rni bugungi kunda nechog'lik ahamiyatli ekanligini keng ommaga havola etish vazifasini bajaradi.

Shu bilan birgalikda, publitsistikada obraz va obrazlilik o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Badiiy adabiyot va san'atda keng ma'noda o'z ifodasini topishi mumkin bo'lgan obraz va obrazlilik publitsistikada ma'lum darajada cheklangan va o'ziga xos vazifani bajaradi. Bu publitsistikaning asosiy vazifasi bo'lmish shu kun, ayni zamonni aks ettirish, undagi muammolar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, hayotni publitsistik jihatdan tahlil qilish va zarur xulosalar chiqarish zarurati bilan bog'liqdir.

Publitsistikaning informatsion qismida obraz va obrazlilik qisman cheklangan, aksariyat hollarda esa ortiqcha hisoblanadi. Chunki bu qism publitsistikaning asosiy vazifasi ommaga faktlar, voqea va hodisalar haqida xabar beradi, yangiliklar yetkazadi. Bu o'rinda obraz va obrazlilikning aralashuvi xabar, yangiliklar haqidagi tushunchalarning ta'sirini kamaytirishga olib keladi. Publitsistikaning

ikkinchi bir muhim qismi bo'lgan hamda hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni baholash, tahlil etish orqali ularning mohiyatini ochib berishga qaratilgan tahliliy publitsistikada ham obraz va obrazlilikdan foydalanish cheklangan holatda bo'ladi. Ammo ayrim hollarda, kishilar faoliyatini yoritishda ma'lum darajada obrazlilik, jonlantirish, tasvir vositalari qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birgalikda, hayotdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berish, jonlantirish, odamlarning his-tuyg'ularini uyg'otish uchun ma'lum ma'noda obraz va obrazlilik kiritilishi mumkin. Bu esa yozilayotgan maqolaning jonli chiqishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Publitsistik janrlarning orasida faqatgina badiiy publitsistikada obraz va obrazlilik keng qo'llaniladi. Chunki badiiy publitsistik materiallarda hayotiy voqealar jonlantirib tasvirlanishi, insonlar faoliyati, voqea va hodisalarkeng, har taraflama aks ettirilishi, o'quvchining ongigagina emas his-tuyg'usiga ham ta'sir etish talab etiladi. Bu badiiy publitsistikaning janriy ko'rinishlarida o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, janr shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan san'at asaridir. Publitsistika janrlari ham shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular ham xuddi adabiyot va san'atdagi janrlar singari kichikdan kattaga, yakkadan umumiyga, oddiylikdan mukammallikka o'sib boradi. Publitsistikaning badiiy turiga oid janrlar lavha, ocherk, esse, feleton vapamfletlardir.

A. Abdusaidovning "Gazeta janrlarining tili va uslubi" nomli kitobida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Voqea-hodisalarni, faktlarni davr talabi nuqtai nazaridan o'tkir publitsistik ruh va badiiy so'z vositasida ifodalash badiiy-publitsistik janrlarning asosiy xususiyatidir. Yana, shuningdek, badiiy-publitsistik janrlarga xos xususiyat hayotning ma'lum sohasini jonli lavhalarda obrazli aks ettirish demakdir. Shuning uchun ham bu janr materiallariga axborot va tahliliy janrlarga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda eng muhim mezon obrazlilik va faktlarning konkretligidir. Konkretlik, hayotiylik gazeta janrlarining eng muhim shartlardan biri hisoblansa, obrazlilik esa bu janrning asosiga singib

ketgan. Axborotni ta'sirchan shaklda o'quvchiga yetkazish uchun bu janrlarda obrazli, emotsional-ekspressiv til vositalaridan keng foydalaniladi"²⁰.

Matbuot nashrlarining ekstralingvistik xususiyatlari. OAVlari orasida vaqtli matubot, jumladan, gazeta ommaviyligi bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Gazetaning publitsistik matnlar orasida alohida ahamiyatga egaligi uning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni bilan izohlanadi. Sodir bo'lgan har qanday voqea-hodisa va yangiliklar dastlab OAVlarda o'z aksini topadi. Gazeta materiallarining faqat yozma tarzda ekanligi tildan foydalanishda uning har bir janriga xos xususiyatlarning barqarorlashishiga olib keladi. Shuning uchun gazetani tildan foydalanishning o'ziga xos oynasi deyish mumkin. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki, birinchidan, unda adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinadi. Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, fan-texnika, ta'lim-tarbiya, xullas, inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi yangilik dastlab gazeta sahifalarida o'z aksini topadi. Bu yangiliklar ifodasi bo'lgan til birliklari ana shu yo'l bilan ommalashadi, ko'pchilikka tushunarli bo'ladi va undan keyingina qaysidir bir uslub doirasida, masalan, ilmiy yoki rasmiy uslubda turg'unlashishi mumkin. Til birliklari nutqning qaysidir bir shaklida gazetada qo'llanilgunga qadar kodifikatsiyalashgan bo'lsa-da, gazeta orqali u iste'molga kiradi, ommalashadi, turg'unlashadi va ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan elementga aylanadi. Shuning uchun ham o'zbek OAVlari va vaqtli matbuoti taraqqiyotida mustaqillik davri alohida bir davr bo'lib hisoblanadi va bu davr publitsistikasining tilini lingvistik jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot uzatish va ta'sir etish imkoniyati gazetada boshqa publitsistik janrlarga nisbatan keng, deb aytish mumkin. Chunki gazetada beriladigan materiallarni avvaldan tayyorlash, qo'llaniladigan har bir til birligi ustida shoshmasdan mulohaza yuritish uchun vaqt va sharoit mavjud. Mana shunday sharoitda o'quvchiga axborotni eng qisqa jummalarda, tushunarli qilib, ayni paytda, ta'sirli qilib yetkaza oladigan til elementlari tanlanadi, qayta ko'riladi, tahrir

²⁰ Абдусайдов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. - Самарқанд, 2001, 133-б.

qilinadi. Boshqacha aytganda, lingvistik va ekstralingvistik omillar mana shu nuqtada birlashadi. Materialga jurnalistik jilo berishga intilish oqibatida ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, gazeta tilida ko‘p so‘zlar o‘zining yangi ma’nolariga ega bo‘ladi, shundan so‘ng ommalashadi va lug‘atlardan joy oladi.

A.Abdusaidovning «Gazeta janrlarining til xususiyatlari» mavzusida yozgan doktorlik dissertatsiyasida gazetani o‘zbek tilida alohida uslub sifatida qaraydi va uning axborot, tahliliy (analitik) va badiiy-publitsistik ko‘rinishlari (podstillar) tarzida tasnif qiladi hamda bu ko‘rinishlarning alohida janrlarini birma-bir tahlil qiladi. Ushbu janrlarning har biri uchun xos bo‘lgan xususiy holatlar hamda barcha janrlarni birlashtiruvchi umumiy holatlarni ilmiy asoslab beradi.

Aytilganlarga faqat shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, gazeta janrlari sifatida sanab o‘tilgan va tahlil qilingan janrlar aslida faqatgina gazeta uslubi uchun xos xususiyat emas va ularni bir janr doirasida chegaralab qo‘yish ham ma’qul emas. Bu janrlar OAVlarining radio va televideniye, jurnal singari ko‘rinishlarida ham u yoki bu darajada daxldor. Ammo gap shundaki, ular har bir axborot vositasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, xabar janrini olaylik. Uning oldiga hamma vaqt konkretlik, aniqlik, operativlik, umumlashtirish, ixchamlik kabi talablar qo‘yiladi. Faktlarning to‘g‘ri bo‘lishi uchun adresant javobgar hisoblanadi. Axborot neytral pozitsiyada turib beriladi. Lekin axborotning uzatilishi va qabul qilinishidagi vaziyat radioda, televideniya va gazetada ularning janr xususiyatlari va axborot yetkazish xususiyatlaridan kelib chiqib, turlicha bo‘ladi. Yozma va og‘zaki nutqning, texnik vositalarning, material muallifining ishtiroki bir xil mavzudagi materialni yetkazishda vaziyatga mos tarzda til elementlarini tanlashni taqozo etadi. Ayni paytda, hamma holatlarda ham publitsistikaga xos bo‘lgan umumiy uslub saqlanib qolaveradi.

Davlat qurilishi va boshqaruviga, madaniyat va sportga, adabiyot va san’atga oid, xullas, jamiyat va mamlakat hayotida yuz beradigan barcha ijtimoiy-siyosiy voqealar, yangiliklar gazeta matnida o‘z aksini topadi. Prezident Farmonlaridan, Oliy Majlis qabul qilgan Qonunlar va hukumat qabul qilgan qarorlardan tortib, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi xabar ham gazetada

berib boriladi. Ammo ularning barchasining tili va uslubini PUga xos deb qarash to'g'ri emas. Masalan, gazetada she'r berildi, deylik. Uni qanday qilib PU ga xos deb aytish mumkin? Uning tili BUGa, farmon, qonun yoki qarorlari tili esa rasmiy uslubga xos. Shunday ekan, ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ko'ra ular bilan funksional yaxlitlik mavjudligini unutmagan holda mazkur uslubdagi bu matnlar ishtirokining muvaqqatligini qayd etish to'g'ri bo'ladi.

Gazetaning bosh maqola, korrespondensiya, reportaj, xabar, fel'yeton, xalqaro obzor va sport sharhi kabi janrlari borki, ularda aynan gazeta tili uchun xos bo'lgan uslubni kuzatamiz. Ularni L.G.Barlas mazkur janrning konstruktiv alomatlari sifatida qaragan. Til elementlarini yangi ma'nolarda qo'llashga intilish gazetizmlarni vujudga keltiradi. Bu sanab o'tilgan axborot vositalari va uslub ko'rinishlarining har biri tildan foydalanishda yana o'z uslubiy xususiyatlariga ega. Masalan, umuman tildan foydalanish ma'nosida yoki publitsistik mohiyati bilan gazeta, jurnal, axbortnoma, umumiy mahrajga birlashsa-da, ularning har birining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalaridan, janr xususiyatlaridan kelib chiqib, o'z uslubi mavjud. Mazkur fikrlar radio, televideniye yoki elektron axborot tizimiga ham tegishli. Shundan kelib chiqib ularning har birini tili va uslubini ilmiy tahlil etish o'zbek tilshunosligi ilmining tadqiqot obyekti bo'lishi zarur. Afsuski, shu paytgacha qadar gazetadan boshqa janrlar lingvostilistik jihatdan tahlil etilmagan.

Publitsistik uslubning alohida belgilari. O'zbek tili FUGa barchasida bo'lgani kabi PUda ham faqat uning o'zigagina xos bo'lgan va matnda alohida bo'rtib turadigan xususiyatlar mavjud. Xo'sh, bu o'ziga xosliklar nimalardan iborat?

Bu xususiyatlar OAVlarining ijtimoiy vazifasiga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Axborot berish barobarida ham targ'ibot ishlarini olib borish, ham tinglovchi, tomoshabin va o'quvchiga ta'sir o'tkazish ularning asosiy vazifasi sanalar ekan, til vositalari ham ana shunga mos ravishda tanlanadi.

OAVlarining informatsiya berish, ma'rifiylik, tarbiyaviylik, tashkilotchilik, gedonistik (ko'ngilochar), safarbarlik, deklarativ-shior, oddiylik, hamma uchun baravarlik kabi asosiy xususiyatlari tanlanish o'lchovlari bo'lib hisoblanadi.

Jurnalistning materialni tayyorlash va uzatish jarayonidagi fikrni rivojlantirib borish san'ati, bayondagi dinamizm, fikriy va hissiy uyg'unlikni muvozanatda saqlashi, hujumkorligi va umuminsoniy etik me'yorlarni saqlashi kabi holatlar ham til vositalarini tanlash jarayonini boshqarib turadi.

Erkinlik, obyektivlik, obrazlilik, ta'sirchanlik, ravonlik, ixchamlik, konkretlik, haqqoniylik, dabdabali, balandparvoz uslubdan voz kechish, emotsional-ekspressivlik kabilar tildan foydalanishning OAVlariga xos bo'lgan jihatlari hisoblanadi. Bularni umumiy holat sifatida baholasak, har bir janrga xos bo'lgan xususiy holatlar ham mavjud. Masalan, konkretlik, aniqlik, operativlik, umumlashtirish, ixchamlik kabilar PUning axborot ko'rinishiga, shuningdek, faktning to'g'riligi, neytrallik singarilar xabar; biron bir yangilikdan xabardor qilish, unda faktlarga tayanish, tezkorlik, ta'sirchanlik, haqqoniylik, tantanavorlik, emotsional-ekspressiv bo'yoqli so'zlarning ko'pligi reportaj; dolzarblik, jonli suhbat, hozirjavoblik, ravonlik, ixchamlik, ta'sirchanlik intervyu janrlariga xos bo'lsa, tahliliylik, umumlashtirish, haqqoniylik, xulosalash kabilar mazkur uslubning tahliliy ko'rinishlariga tegishlidir. Shuningdek, qoliplilik, andozalilik va neytrallik korrespondensiyalarga; dalil, isbot, tahlil, umumlashtirish, obyektivlik kabilar maqola janrlariga xos xususiyatlar sanaladi.

Bu xususiyatlar OAVlarining barchasiga tegishli bo'lsa, gazeta va jurnallar imkoniyati ularda beriladigan bosh maqola, bosh muharrir minbari singari rubrikalar hisobiga yana ham kengayadi. Ular dasturiy, safarbarlik, yo'l ko'rsatuvchilik, targ'ibot va tashkilotchilik, umumlashtiruvchilik, publitsistik va ishchanlik xarakteri bilan publitsistikaning maxsus janrlari sifatida namoyon bo'ladi. Subyektiv bahoning mafkuraviyligi, bayon uslubining yuqoriligi, ijtimoiy-siyosiy leksikaning faolligi, sintaktik qurilishi nisbatan murakkabligi bilan bu maqolalar alohida mavqeda turadi.

Ushbu tadqiqotlarda keltirilib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, badiiy-publitsistik janrdagi asarlarda axborot obrazli ifodalar vositasida, badiiy til elementlaridan unumli foydalangan holda gazetxonga yetkazib beriladi.

III BOB.

PUBLITSISTIK USLUB (GAZETA TILI)NING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

3.1. Publitsistik uslub (gazeta tili)ning leksik xususiyatlari

00Publitsistik uslubning o'zbek tili nutq uslublari tizimida tutgan o'rni, uning mohiyatini aniqlashdamazkur uslubning leksik xususiyatlari ham muhim ahamiyatga egadir. Bu xususiyat til qatlamlarining barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Masalan, fonetik sathda kitobiy va so'zlashuv elementlarini talaffuz qilishning uyg'unligi, ohangning muayyan semantik-stilistik vazifalarni bajarishga bo'ysundirilishi; leksik sathda ijtimoiy-siyosiy leksikani samarali qo'llash; morfologik-so'z yasalishi sathida ot va fe'lning kategorial shakllarini faol ishlatish; qisqartmalardan foydalanish; sintaktik sathda sintaktik qurilmalarning oddiyligi, gap qurilishining tartibli, jumlaning mantiqiy markazi hisoblanadigan gap bo'laklari inversiyasi, poetik sintaksis kabilar mazkur uslubning lingvistik xususiyatlaridir. Og'zaki publitsistik nutqda adabiy tilning orfografik me'yorlariga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Shuning uchun tadqiqotchilar ularga alohida to'xtalib o'tirishga zarurat sezishmagan.

Publitsistik matnlar leksikasi va frazeologiyasi haqida so'z yuritish murakkab vazifadir. Unda kitobiy so'zlar ham, so'zlashuv elementlari ham mavjud, o'zbek tilining barcha nutq uslublari xos bo'lgan til elementlarining oddiy va neytral, o'z va o'zlashgan leksikadan tortib emotsional-ekspressiv ottenkali yuqori uslubga oid so'zlarga, jonli til elementlaridan tortib ijtimoiy-siyosiy terminologiyagacha bo'lgan til elementlarining qo'llanishi publitsistik uslubning ijtimoiy hayot voqealarini aks ettirishga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Publitsistik uslubning ommaviy axborot vositalari tiliga xos bo'lgan intervyu, bosh maqola, axborot, reportaj kabi professional leksika ham, aholi farvonligini oshirmoq, vazifalarni aniq belgilab olmoq, yetarli darajada foydalanmaslik, ishbilarmonlarga keng yo'l ochmoq, joriy yil, zo'r qoniqish bilan, ishni yangicha tashkil etmoq, mavjud imkoniyatlardan foydalanmoq, ma'lum qilishicha, mehnat va ijro intizomi,

imkoniyatdan foydalanmoq, muammolarni o'z vaqtida hal etmoq, munosib hissalarini qo'shmoq, turmush madaniyatini yaxshilamoq, umumdavlat manfaati, umumxalq manfaati, farxrlanish tuyg'usi bilan, xabar qilishlaricha singari o'z va turg'un birikmalariva ifoda qoliplari ham shakllanganki, ular nutq uslublarni bir-biridan farqlash va mazkur uslubning mavqeini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, boshqa ijtimoiy sohalar, binobarin nutq uslublarga xoslangan so'z va jumlar ham publitsistik matnlarda faol qo'llaniladi. Bu ham ana shu til birliklarining ommaviyligi va faolligining hosilasidir. Masalan, qo'yidagi so'z va jumlar boshqa nutq uslublariga ko'proq daxldor bo'lsa-da, publitsistik uslubda ham faol qo'llaniladi: iqtisodiy yo'nalishga oid: aholi bandligini ta'minlamoq, barqaror rivojlanishni ta'minlamoq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirimoq, izchil rivojlanish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar yarmarkasi, manziliy dastur, kichik va o'rta biznesni rivojlantirmoq, yangi ish o'rinlari tashkil etmoq, yangi ish o'rinlarini yaratmoq;

Huquqiy yo'nalishga oid: odam savdosi, qonun ijodkorligi, qonunlar ijrosi, huquqiy bazani ta'minlamoq;

Tibbiy nutqqa oid: reproduktiv salomatlik, aholini sog'lomlashtirish dasturiyoki ta'kidlamoq, qayd qilmoq, qayd etmoq, intellektual salohiyatini oshirmoq, davlat tashrifi, taklifga binoan kabi birikmalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Birgina sport so'zi atrofida shakllangan mana bu jumlar ommaviy axborot vositalari tilida g'oyatda faoldir: bolalar sporti, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, ommani sportga keng jalb qilish, sport klubi, sport majmui, sport maskanlari, sport musobaqalari, sport olami, sport turlari, sport to'garaklari, eng faol sportchi singari.

Barkamol avlod, ustuvor vazifa, ustuvor yo'nalish, yoshlar tarbiyasi singari umumnutqiy jumlalarining g'oyatda faolligi ham mazkur uslubning ommaviylik mohiyatidan kelib chiqadi. Davr talabi, do'stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo'stligi singari turg'un birikmalarni faol qo'llash ham publitsistik uslubning tabiatiga

xosdir. Publitsistik uslubda soʻz qoʻllash imkoniyati shu qadar kengki, hatto umumisteʼmoldagi soʻzlar atamaga aylanadi. Masalan: ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qoʻymoq, ovoz bermoq, singari misollar tariqasida koʻrishimiz mumkin. Publitsistika ijtimoiy-siyosiy hayot voqealariga faol aralashgani sayin zamonaviy til rivoji va taraqqiyotiga ham jiddiy taʼsir koʻrsatib boradi. Masalan, birgina oʻzbek terminologiyasi taraqqiyotini olaylik. Bu haqda akad. Azim Hojiyevning aytganlarini eslaylik: “Hozirgi oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli ham juda muhimdir. Xuddi shu vaqtli matbuotda, ayniqsa, gazetada, adabiy tilning barcha stillari oʻz aksini topadi. Shu bilan birga, ijtimoiy aloqaning bu formasi kundalik hayotda muhimligi, operativligi va ommaviyligi bilin ham xarakterlanadi. Shu jihatdan, “adabiy tilning eng muhim laboratoriyasi” degan iborani vaqtli matbuotga nisbatan aytish juda ham oʻrinli boʻladi”.

Shu oʻrinda aytishimiz lozimki, til elementlarining qoʻllanish holati turli davrlarda turlicha boʻlgan. Masalan, mustaqilligimizdan avval protsent, revolyutsiya, redaktor, reforma, spravka, student, tekst, ekonomika singari yuzlab soʻzlarni publitsistikada faol qoʻllab kelganmiz. Mustaqillik esa ongimizga, shuurimizga jiddiy taʼsir korsatdi, asta-sekinlik bilan oʻzligimizni anglay boshladik va milliy mafkuramizni shakllantirishga kirishdik. Bu esa, shubhasiz, tildan foydalanishda ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Foiz, inqilob, muharrir, islohot, maʼlumotnoma, talaba, matn, iqtisod, iqtisodiyot singari birliklarni qoʻllash tamoyilga kirdi. Aytilganlardan kelib chiqib, tildan foydalanish jarayonini shartli ravishda mustaqillikkacha boʻlgan davr, mustaqillikning dastlabki yillari va mustaqillikning keyingi davri deb oʻrganish mumkin boʻladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida kishilar ruhiyatida sodir boʻlgan ijobiy oʻzgarishlar ularni yangilanish sari undadi. Jumladan, amalda qoʻllanib kelinayotgan ruscha-baynalminal soʻzlarni “oʻzbekchallashtirish” kayfiyati kuchaydi. Oʻrinli va oʻrinsiz almashtirishlar natijasida ayrim holatlarda tilimizning leksik meʼyorlari qoʻpol ravishda buzildi. Musohaba, mushtariy, ilmgoh, oliygoh, oʻyingoh, sihatgoh, issiqxona, ajoyibxona, eshikbon, sayrbon, oybitik, oynoma,

roʻznoma singari soʻzlar ommaviy axborot vositalari tilida goh-gohida uchrab turgan. Ammo har qanday shoshma-shosharlik, termin yaratuvchilik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi maʼlum boʻlib qoldi. Oradan oʻtgan davr asta-sekinlik bilan soʻz qoʻllashdagi bu salbiy holat va oʻzboshimchaliklarga barham berildi. Vazirlar Mahkamasi qoshida faoliyat koʻrsatib kelayotgan Atamalar qoʻmitasi va keng jamoatchilik tavsiyalari natijasida terminlarni, chet soʻzlarni qoʻllashga, ichki imkoniyatlarimizdan foydalangan holda yangi soʻzlar yasashga muayyan aniqliklar kiritildi. Bu meʼyorlashuv jarayonida OAVlarining xizmati katta boʻldi.

Toʻgʻri, tilimizda hozirda ham ayrim tushunchalarning atamalari dublet holatida arxitektor-meʼmor, injener-muhandis, universtet-dorilfunun tarzida qoʻllanilib kelinmoqda. Tilshunoslikda ham epitet – sifatlash, derivatsiya – soʻz yasalishi, affiks – qoʻshimcha, abbreviatura – qisqartma soʻz, anafora – misra boshidagi tovush takrori, antroponimlar – kishi nomlari, toponimlar – joy nomlari, stilistika – uslubshunoslik kabi oʻnlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatibkelayapmiz. Bunday parallel soʻz qoʻllanishning boisi atamalarning birinchisi xalqaro termin sifatida barcha tillarda qoʻllanilib kelinayotganligi boʻlsa, yana bir sababi, ularning har biri nutqda oʻziga xos stilistik qoʻllanilish oʻrniga egaligidir.

Bu borada A.Abdusaidov “Lugʻaviy dubletlarni ishlatishda maqsadga muvofiq boʻlmagan variantlilikdan voz kechish, yaʼni bir terminning faqat dubletini parallel holda qoʻllash lozim. Aks holda variantlilik kuchayib, ayrim tushunilishi qiyin soʻzlar gazeta matnlaridan oʻrin oladi”, degan mulohazani bildiradi. Tildagi tejamkorlik va aniqlik tamoyillariga koʻra bu fikr toʻgʻridir. Ammo biz dublet sifatida qaraydigan har bir elementning tilimizda oʻz stilistik qiymati bor. Masalan, Buxoro davlat universiteti – Buxoro davlat dorilfununi deyish mumkin. Ammo, Hayotning oʻzi bir dorilfunun deyish mumkin-u, Hayotning oʻzi bir universtet, deb boʻlmaydi. Bu dorilfunun soʻzidagi sematnik-stilistik maʼnoning kengligi bilan, universitet esa aniq bir oʻquv yurtining nomini atash doirasida chegaralanganligi bilan izohlanadi.

Publitsistik matnlar leksikasi va frazeologiyasida til birliklarini qo'llashda yangilikka intilish bilan bog'liq bo'lgan yana bir holat bor. Bu so'zlarning ohorliligi masalasidir. OAVlari tilida paydo bo'lgan har bir yangi so'z ma'lum muddatgacha qo'llanadi va u vaqt o'tishi bilan bu xususiyatini yo'qotadi.

Bugun tilimizda boshqacha bir manzara kuzatiladi. Dunyoda ro'y berayotgan ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida paydo bo'lgan bakalavr, bakalavriatura, birja, investr, kollej, konsalting, konsern, korporatsiya, lizing, litsey, magistr, magistratura, market, marketing, menejment, fermer, firma, xolding kabi yangi so'zlar, eng avvalo, OAVlari orqali tilimizda o'z o'rniga ega bo'ldi va ommalashdi.

Shu o'rinda ilmiy rahbarim B.Qilichev bilan hammualliflikda nashrdan chiqarilgan "Feleton janrining lingvistik xususiyatlari" deb nomlangan maqolamizni keltiramiz:

"Feleton gazeta janrlari orasida eng ta'sirchanligi, tanqidiyligi va o'qimishliligi bilan ajralib turadi. Ushbu termin Italyan tilidan olingan bo'lib, "varaqa" degan ma'noni bildiradi. Ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan illatni fosh qilishda feleton janrining o'рни beqiyosdir.

O.Tog'ayevning Publitsistik janrlar nomli o'quv qo'llanmasida "...hayotdagi konkret kamchiliklarni yo'q qilishga amaliy ta'sir ko'rsatish bilan birga, gazetxonlar ommasini axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalaydi, yangi odamning shakllanishiga yordam beradi", – deb ta'riflayadi.

Ushbu janrning lingvistik xususiyatlari haqida tilshunoslikda bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Bu ishlarda taniqli jurnalist va yozuvchilar tomonidan e'lon qilingan feletonlar tahlil qilingan bo'lib, ularda feletonning leksik-grammatik va stilistik imkoniyatlari to'la yoritilgan. Shunday tahlillar tilshunos olimlar M.Xudoyqulov, A.Abdusaidov, O.Tog'ayevlar²¹ning tadqiqotlarida, shuningdek, adabiyotshunoslar I.Sultonov, D.Xudoyberganov, N.Shukurov, H.Umurov²²larning kitoblaridan ham o'rin olgan. Ana shu tadqiqotlardagitahlillarga asoslanib,

²¹ Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан. докт...дис. автореферати. – Тошкент, 2005; Тоғаев О. Публицистик жанрлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

²² Умuroв Х. Адабиёт назарияси. Дарслик. –Тошкент: Шарқ, 2002, 220-б.

nodavlat gazetalarda e'lon qilingan feletonlar tilini o'rganishga harakat qildik.

Feletonning ijtimoiy mohiyati va ta'sir imkoniyatlari kengligi uchun o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot natijasida feleton janrining ikki xil turi vujudga keldi. Ular "ichki janrlar", ya'ni adabiy feletonlar va hujjatli feletonlar kabi turlarga bo'linadi.

Gazeta feletonlari asosan, hujjatli feletonlar bo'lib, uning qahramonlari konkret shaxs, jamoa bo'lishi mumkin. Konkret shaxs, jamoaning xatti-harakatlari natijasida yuz bergan salbiy holat feletonda aniq, tekshirilgan faktlar asosida fosh etiladi. Feletonning o'ziga xosligi uning tilida namoyon bo'ladi.

"Darakchi" gazetasining 7-soni (675. 16.02.2012) da O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "*Usta ko'rgan shogird*" sarlavhali feletoni "Kulgixona" rukni ostida nashr qilingan. Unda real hayotdagi ijtimoiy illatni hajviy yo'l orqali fosh etishga harakat qilingan. Ilmiy faoliyatdagi saviyasizlik, fan kishilarining poraxo'rliqi, soxta ilmiy ishlar ustidan sarkazm vositasida ochib tashlanganligi bu feletonning xarakterlovchi xususiyatidir. Feletonda xalq og'zaki ijodi unsurlaridan, jumladan, maqol, matal, naql kabi frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalanilgan. Bu esa so'z ustasi tomonidan yaratilganining isbotidir.

Unda ishlatilgan ayrim maqollar mazmun talabiga ko'ra, o'zgarishga uchragan. "Ha, endi domlajon! *Mehmon kelar eshikdan, nasibasi teshikdan*". Bu o'rinda "*Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan*" shaklidagi maqolni ayrim o'zgarishlar (*rizqing* so'zi o'rniga *nasibang*) bilan qo'llanilgan. Yana bir o'rinda "*Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan*" maqoli mana bu shaklda ishlatilgan: *teng – tengi bilan* deganlariday quda bo'lmish katta professor.

Umuman, feletonda yozuvchining san'atkorona so'z va maqol ishlatish mahorati yaqqol ko'rinib turibdi.

O'tkir Hoshimovning "Kulgixona" rukni ostida e'lon qilingan "*Domlaning aytganini qil...*" (D.,46(610)-son,18.11.2010) nomli yana bir feletoni ushbu janrning go'zal namunalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, keyingi yillar matbuotida juda kam uchrayotgan feletonlardan bo'lsa-da,

tilimizning badiiy-tasvir imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangani bilan ajralib turadi. Feleton inson xarakterida uchrab turadigan illatlarni fosh qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda qahramon sifatida ziyoli – domla tanlangan. Ustoz va shogird munosabati orqali ayrim ziyolilarda uchraydigan ezmalik, bilag'onlik illatlari tanqid qilinadi.

Feletonda maqsadni to'la ro'yobga chiqarish uchun badiiy-tasvir vositalari: ibora, ko'chim, mubolag'a, sifatlash, o'zshatishlardan, qahramonning madaniy darajasini aks ettirish maqsadida shevaga xos so'zlar va varvarizmlardan keng foydalangan.

Masalan: *mehmon bir nima deganidan keyin go'rni g'ing deysanmi, o'chira qoldim*. Iborasi qo'llanilgan. Ammo, bu iboraning semasi izohli lug'atida qayd etilmagan bo'lsada, xalq orasida u "go'rni g'ing deysanmi" ya'ni, "...mehmoning ovqatga qo'l urmaganidan keyin qandoq qilib o'zing yeysan" kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda, Sifatlash: "Bir-ikki osham yeb ko'rdim. Yo'q, nozaninday osh", "Xudoga shukr, xotiram buloq suviday tiniq". Mubolag'a: "...hammasiga xotin aybdorday chunonam o'qrayib qaradimki, qoshim naq sochimga borib yetdi, chog'i...". Shevaga xos so'zlar: "Jahonda iskleroz bilan eng ko'p kasallanadigan xalq inglizlar ekan". Ushbu gapdagi "iskleroz" so'zi "skleroz" so'zining shevadagi talaffuzi bo'lib, kasallik nomini ifoda etadi.

Ma'lumki, gazeta tilida qo'llaniladigan so'zlarning milliy qatlamlari, xususan, o'zlashmalarning qo'llanish darajasi turlicha. Bir necha asrlar mobaynida o'zbek tili leksikasi, asosan, umumturkiy, o'z hamda arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan qatlamlar hisobiga boyib borgan bo'lsa, XIX asrning 70-yillaridan bu vazifaning katta qismini rus tili leksikasi bajara boshladi. Rus zabon aholi bilan bevosita aloqalar, ishlab chiqarishda yuz bergan o'zgarishlar, aloqa, pochta, matbuotning shakllanishi va h.k. ekstralingvistik omillar o'zbek tili leksikasiga rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan ko'pgina so'zlarning kirib kelishini ta'minladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, nodavlat gazetalarida o'zlashgan so'zlarga munosabat nisbatan talab darajasidadir. Lekin ruscha so'zlarni feleton janrida ishlatishda o'ziga xos yondashuvlar mavjud.

"Soch bo'yaymi, qosh teraymi?!" (D., 4(620)-son, 27.01.2011) sarlavhali feletonda qo'llanilgan so'zlarning ayrimlari chet so'zlardan iborat. Masalan, feleton matnida kitobxonda qahramonning xarakteri, u haqida tasavvur uyg'otish maqsadida *ochered, sellefan, nichevo* kabi so'zlar qo'llanilgan.

Varvarizmlardan foydalanish tilning va nutqning madaniylik darajasini buzadi. Gazeta jamiyatning ko'zgusi ekanligi, uning madaniylik darajasini belgilashini inobatga olib yozilishi zarur.

"Darakchi" gazetasining 17(633)-sonida (26.04.2011) *"Feleton o'rnida"* rukni ostida e'lon qilingan feletonini alohida ta'kidlash lozim. Materialda *zato, konkret, musor, otvechat, zemlyak* kabi so'zlar, ular asosida *"Zato og'zim qiyshig'u", "Musor" jargonlarni tiqishtiravermanglar*, *"Konkret Po'lat Alandarga o'xshading"*, *"...so'zimga otvechat qilaman"* kabi iboralar qo'llangan. Aslida material mazmunidan kelib chiqib, ushbu so'z va iboralar kino asarlarda qo'llangani tanqid qilinganligini ta'kidlashimiz zarur. Shuningdek, ushbu feletonda shevaga xos so'z va iboralar ham qo'llanilgan, ular ham ma'lum stilistik funksiyani bajargan. *"Dollar olaman, dollar"* sarlavhali (50 (614)-son, 16.12.2010) feletonda sheva elementlari, argolardan keng foydalanilgan. Masalan, *"Bu yerning ko'kini faqat man hal qilaman, man, eshitdingmi?"* va *"...kecha kelib olib mening kliyantlarimni yo'ldan urasan-a"* kabi jummalardagi *"ko'ki"* va *"kliyant"* so'zlari ana shunday birliklardandir. Men olmoshining o'rnida *"man"* sheva shakli qo'llanilgan. Iboralar ham ma'lum stilistik vazifani bajargan: *"hal qilmoq"*, *"yo'ldan urmoq"* kabilar.

Yuqoridagi misollardan ham ko'rishimiz mumkinki, feleton boshqa janrlarga nisbatan ancha erkindir. Bu esa unda leksimalarning turli semalarda namayon bo'lish imkoniyatini beradi".

Yana boshqa bir maqolamizda ilmiy rahbarim Bayramali Qilichev bilan hammualliflikda chop etilgan "Ocherkning leksik-grammatik xususiyatlari" deb

nomlangan maqolamizdan Ocherk janrining leksik xususiyatlarini bayon etiladi. Grammatik xususiyatlari esa bobimizning keying faslida bayon qilamiz:

“Ocherk publitsistik uslubning muhim janrlaridan biridir. Unda jamiyatdagi real shaxslar taqdiri, haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar, yozuvchi, jurnalist yoki muxbirning kuzatishlari asosida yozilayotgan mavzu publitsistik ruh bilan sug‘oriladi. Ocherk publitsistik janrlar orasida o‘ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. U jamiyat hayotidagi bugungi kun voqeliklarini hozirjavoblik bilan gazetxon hukmiga havola etadi. Bu esa publitsistik uslubning muhim xususiyatlaridan biridir.

Ocherk leksimasiga olimlarimiz turlicha ta’rif berishgan. Ammo, uning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, u ruscha “chertit, ocherchivat” so‘zidan olingan bo‘lib, “chizmoq, atrofiga chiziq tortmoq” degan ma’noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ocherk muayyan muddao asosida mushohada qilingan faktlar, voqea va hodisalarning eng muhim belgilarini, kishilar harakatidagi eng asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, o‘quvchida yaxlit tasavvur, muayyan tushuncha hosil qiladi.

Bu janr badiiy-publitsistik janr bo‘lganligi uchun unda badiiy adabiyotga xos bo‘lgan vositalar bilan publitsistik xususiyat uzviy bog‘lanib ketadi. Uning badiiy talabi undagi voqelikning obrazli tasviri, inson qiyofasi va ichki dunyosi, mehnati va intilishlari, yaratuvchilik faoliyatini badiiy vositalar bilan jonlantirib tasvirlashdan iborat bo‘lsa, uning publitsistik jihati muallifning voqea va hodisalar, unda ko‘tarilgan muammolar haqidagi fikr-mulohazalari, chiqargan xulosalaridan iboratdir.

Ocherk mustaqil epik janr sifatida o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Shu nuqtai nazaridan ocherk gazeta janrlari orasida eng murakkab, eng ziyrak, ixcham, hozirjavob janr sifatida shakllangan. Aksariyat ocherklarning mavzusi zamon qahramonlari bo‘lgan taniqli kishilarning faoliyati bo‘lib, unda jamiyatdagi konkret shaxs, mehnat jamoasi, tashkilot hayoti aks ettirilgan bo‘ladi.

Ocherk o‘z shakli va yo‘naltirilgan maqsadi hamda obykti nuqtai nazaridan turlicha bo‘lib, ular portret ocherki, voqea ocherki, muammo ocherki, yo‘l ocherki,

sud ocherki va boshqalardan iboratdir. Ocherkning bu xillariga xos bo'lgan umumiylik, hayotni obraz va obrazlilik yordamida tasvirlash bo'lib, farqlari esa mazkur tasvirning biror jihatiga kengroq o'rin berilishi hisoblanadi. Uning bu kabi turlari bir-birlaridan turli xil xususiyatlariga ko'ra farqlanadi.

Masalan, *yo'l ocherki* o'zbek publitsistikasining nisbatan qadimiy janrlaridan biri bo'lib, unda sayohat taassurotlari aks ettiriladi. *Portret ocherkida* esa biron insonning ijtimoiy, siyosiy yoki ijodiy qiyofasi so'z vositasida tasvirlanadi, aniqrog'i "chiziladi". Bunday ocherklarda, asosan, taniqli shaxslar obrazi yoratiladi va uning ichki va tashqi dunyosi bilan bog'liq faktlar ijtimoiy faoliyati bilan birga tasvirlanadi.

Keyingi yillar gazeta janrlari orasida ommaviy va o'qishli janrlardan biri sifatida *sud ocherkini* ko'rsatish mumkin. Jinoiy faoliyat va uning salbiy oqibatlaridan to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beruvchi ushbu janr detektiv va kriminalistik taassurotlarga boyligi bilan boshqa gazeta janrlaridan farq qilib turadi. Hozirgi kunda nafaqat huquqni himoya qiluvchi davlat tashkilotlari organlarining "Postda", "Inson va qonun", "Huquq" kabi gazeta va jurnallarida balki boshqa gazetalarda ham bu janrdankeng tartibda foydalanilmoqda.

Masalan, "Darakchi" gazetasidan olingan mazkur matnga e'tibor qiling: "*Janob Xe Yang "pichoqning sopini o'zidan chiqarish" maqsadida "Yang Chans Asian" MCHJ direktorligini yurtdoshimiz A.Abduraimovga topshiradi*" gapida qo'llanilgan "*pichoqning sopini o'zidan chiqarish*" birikmasi maqolning o'zgargan shakli hisoblanadi. "*Chens*" kompaniyasi mahsulotlarining "*mo'jizaviy*" qudratiga bag'ishlangan "*leksiya*"lari jinoiy guruh faoliyatida muhim rol tutgani shubhasiz". Kinoyaviy tarzda ishlatilgan "*mo'jizaviy*" va "*leksiya*" so'zlari badiiy imkoniyatlarni to'la namoyon qilishga sabab bo'lgan.

Ocherk yozayotganda unga sarlovha tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli ham, ichki kichik sarlavhalar ocherkning keng qamrovli bo'lishida, mavzuni to'la yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik ocherk sarlavhalarida turli xil badiiy til elementlaridan foydalanilmoqda.

Masalan: “*Do ‘ppisi tor kelmoq*” iborasi, “*sabrning tagi – sariq oltin*” maqoli, *Ko‘nglingizni to‘q qiling, Nozik odamlar, Oxiri baxayr bo‘lsin, Ko‘zini ochib, qadamini o‘ylab bosganida, Gullagan damlarini panjara ortida o‘tkazish* kabi sud ocherkiga qo‘yilayotgan nomlarda badiiy til vositalari ta’sirida shakllangan iboralar qo‘llanganki, ular matnning badiiy qimmatini oshirish, ta’sirchanligini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilayotir.

Hozurgi kunda jurnal va gazetalarda jumla tuzishdagi kamchiliklarning ko‘plab yuz berayotganligi matbuotning asosiy muammolaridan biridir. So‘zni noo‘rin qo‘llash, imlo qoidalariga rioya qilmaslik natijasida sodir bo‘layotgan xatoliklar nisbatan kichik, juz’iy bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Aslida ularni ham juz’iy deb bo‘lmaydi. Lekin jumla tuzishdagi xatolik, g‘alizlik, chalkashliklar matbuot tilining sifati, uning ta’sirchanligi, savodxonlik va nutq madaniyatini oshirish, adabiy normani puxta egallashdagi rolini pasaytiradi.

Ma’lumki, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari o‘ziga xos stilistik imkoniyatlarga ega. Ana shu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanilsa, gazeta va jurnal materiallarida qo‘llanilayotgan so‘roq, buyruq va undov gaplar fikr-mulohazalarning mazmunli bo‘lishida katta rol o‘ynaydi”.

Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ldiki, ocherk boshqa publitsistik uslublardan serqirraligi bilan ajralib turadi. Ba’zan, gazeta tilida chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarning nutqda boshqa ma’no, gazeta sahifalarida boshqa ma’noda qo‘llanayotganligini ko‘ramiz. Ana shunday leksimalarning publitsistik uslubda qo‘llanilishiga oid N.Sabriyeva (Sam.vil. Urgut tum. 109-maktab o‘qituvchisi) bilan hammualliflikda “Publitsistik uslubda so‘z o‘zlashtirish” deb nomlangan maqolamiz quyidagi fikrlar bayon qilingan:

“O‘zbek adabiy tilining publitsistik uslubi matbuot tili rivojida muhim omil hisoblanadi. Mazkur uslub orqali omma bilan doimiy muloqot olib boriladi va u ommaga tezkor axborot berish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy leksikadan faol foydalanish, so‘zlashuv uslubiga intilish publitsistikaga xos xususiyatdir.

Xolis, haqqoniy, tezkor, mazmunli axborot yetkazib berish manbai sifatida matbuotning o‘rni va roli istiqbol yillarida yanada mustahkamlandi. Matbuotning

lisoniy xususiyatlarini o'rganish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Istiqlol davrida matbuot, radio va televideniye materiallari ham shaklan, ham mazmunan yangilandi. Shuningdek, o'zbek matbuoti son va sifat jihatidan o'zgardi. Matbuot leksikasining ravnaqi ijtimoiy-adabiy fakt sifatida gazeta tilining lingvistik va ekstralingvistik omillari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, so'ngi yillarda chop etilayotgan gazeta, jurnallarda chet tilidan o'zlashgan so'zlarning ma'no jilolarini kurishimiz mumkin. Bunda muxbirlarimizning bilim va ko'nikmalarni chuqur egallaganligi muhim ahamiyatga egadir. Ularning so'z qo'llashdagi mohirligi tufayli bugungi kunda publiistsistik uslubda keng qo'llanilayotgan so'zlar ma'nolarining rang-barangligiga erishilmoqda.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tashviqot, salohiyat, izchil, sazavor, surunkali, jadal, tatbiq, sharh, pedagogik, ilg'or, kuzgu, nigoh, muhayyo, munavvar, chorog'on, muvofiq, tashviqot, targ'ibot kabi o'zlashgan so'zlarning nutqiy muloqatda ifodalaydigan ma'nosidan farqli o'laroq, publitsistik uslubda bularni noan'anaviy usulda qo'llanilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar saylovoldi tashviqoti doirasida mamlakatimiz hududlarida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Yoki boshqa bir jihatga e'tiboringizni qaratamiz. Brifing so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, qisqa degan ma'noni bildiradi. Unda rasmiy shaxslarning Ommaviy axbarot vositalari bilan uchrashuvi va muayyan masala bo'yicha rasmiy nuqtai nazar yoki xalqaro muzokaralar, kengashlar, konferensiyalarning borishi va boshqalar to'g'risida tomonlarning o'zaro kelishib olingan qarashlari, rasmiy xulosasi qisqacha bayon qilinadi.

Yoki ro'yob so'zi forsha so'zdan olingan bo'lib, suv sathi degan ma'noni bildiradi. Ammo hozirgi kunda ma'lum bo'lish, voqelanish, yuzaga chiqmoq, amalga oshmoq degan ma'nolarda qo'llanilmoqda. Masalan: Turmushda kishining tuzgan rejalari hamma vaqt ham ro'yobga chiqavermas ekan. Yoki, Mazkur loyiha ro'yobi uchun xorijlik sarmoyadorlar tomonidan 200 ming AQSH dollari hajmida investitsiyalar kiritildi. Yoki nufuz so'zi – arabcha so'zdan olingan bo'lib, ta'sir

degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda esa obru-e'tibor kabi ma'nolarda qo'llanilmoqda. Masalan: Bek o'z nufuzining yo'qolib borayotganidan diqqati oshib ketdi.

Ufq so'zi ham arabcha so'zdan olingan bo'lib yer va osmon tutashgan chegara ma'nosini bildiradi. Ochiq osmon bilan yerning yoki suv sathining ko'z ilg'agan o'zoqlikda o'zaro tutashganday, yer bilan osmon qo'shilganday bo'lib ko'ringan chizig'ini biz ufq deb ataymiz. Masalan: Ufqni o'z gavdasi bilan to'sgan past-baland tog'lar qorayib ko'rindi. Yana bir misol; Qayd etilganidek, 23 yil muqaddam erishilgan mustaqillik yurtimiz taraqqiyotida yangi uqllarni ochdi. Mazkur gapda ufq so'zi imkoniyat, yutuq kabi so'zlarning o'rnida qo'llanilmoqda. Bu esa publitsistik uslubning rang-barangligidan yanabir dalolatdir. Yoki hisob arabcha so'zdan olingan bo'lib, hisoblash, sanab chiqish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan: Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ochiqligi hamda jamiyatga hisobdorligini oshirish saylovoldi dasturning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan misollarimizga qo'shimcha tarzda lavha so'zini keltirmoqchimiz. Bu so'z publitsistik uslubda a'lohida janr hisoblanadi. Bu so'z tilimizga arabchadan o'zlashgan bo'lib, *manzara*, *yozuv taxtasi*, *ko'rinish* degan ma'nolarni anglatadi. "O'zbek tili izohli lug'ati"da lavha so'zining 5 ta ma'nosi ifodalangan bo'lib, *taxta*, *ustiga biron narsa yozilgan taxtacha*, *peshlavha* degan ma'nolarni anglatishi berilgan. Voqea-hodisa va shu kabilar kichik asar yoki parcha degan ma'noda qo'llanilishi haqidagi ma'lumot ham keltirilgan. Lavha aslida kichik janr bo'lib, voqea joyini va uning mohiyatini to'g'ridan to'g'ri tasvirlash uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zlashgan so'zlarning publitsistik uslubda turli ma'nolarda ifodalanayotganligi publitsistiksmizning toboro gullab borayotganligidan dalolat beradi. Zero, Prezidentimiz: "Milliy o'zligimizni anglash, bebaho ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va xalqimizga yetkazishda

ommaviy axborot vositalarning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligi”²³ni bejiz ta’kidlab o‘tmagan. Davriylik va jarayonlilik, avvalgi an’analar bilan chambarchas bog‘liqlik, bir vaqtlilik, ommaviylik, ishlab chiqarishning yuqori sur’ati gazeta ijodining asosiy xususiyatlari bo‘lib, uni ijtimoiy-adabiy hodisa sifatida namoyon etadi.

3.2. Publitsistik uslub (gazeta tili)ning grammatik xususiyatlari

Publitsistik uslubning morfologik xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, uning faqat o‘zigagina xos bo‘lgan morfologik ko‘rsatkichlari yo‘q. U adabiy tildagi barcha morfologik vositalardan foydalanaveradi. Ammo ayrim qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘zlar va ular ishtirok etgan turg‘un jumlar mazkur uslubga xosligi va qo‘llanish doirasining faolligi bilan ajralib turadi. Masalan, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi sanaladigan umum so‘zi ishtirok etgan umumxalq, umumbashariy, umuminsoniy, umummilliy, umumiyqisodiyot, so‘zlari; -ish qo‘shimchasi yordamida yasalgan liberallashtirish, rivojlanish, foyda keltirish, himoya qilish birliklari yoki insonning shaxsiy huquqini ta’minlash, sanksiya berish, sud-huquq tizimini leberallashtirish, o‘lim jazosini bekor qilish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, qamoqqa olish jumalari; -lik qo‘shimchasi yordamida yasalgan bag‘rikenglik, vatanparvarlik, jamoatchilik, izchillik, insonparvarlik, oshkoralik, peshqadamlik, safarbarlik, tadbirkorlik, to‘rachilik, fuqarolik, g‘oliblik, hamkorlik, homiylik elementlari yoki peshqadamlik qilmoq, hamkorlik o‘rnatmoq, safarbarlik chaqiruvi, insonparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillari, jamoatchilik tashabbusi, fuqarolik jamiyati jumalari; -aro yordamida shakllangan xalqaro huquq, xalqaro hujjat, xalqaro konvensiya va deklaratsiyalar, g‘oliblik uchun o‘zaro bellashmoq singari jumlar publitsistik matnlarida faol qo‘llaniladi. Qo‘llanish doirasi yuqori bo‘lgan qo‘shimchalar tizimiga –chilik ni ham kiritish mumkin. Masalan: Sanobar – iqtisodchilikni, Saltanat – hisobchilikni va G‘oliba – ilm yo‘lini tanlagan. Oralariga bunchalik

²³Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

sovuqchilik tushadi deb o'ylamagandim. Chiranib qilingan isrofgarchilik hisobiga guldek bir oila jar yoqasiga kelib turibdi ("Buxoronoma") kabi.

Ko'plik ko'rsatkichi -lar umumlashtiruvchilik, yaxlitlik ma'nolarini shakllantirishga xizmat qiladi: ayollarimiz, otaxonlarimiz, onaxonlarimiz, opa-singillarimiz, veteranlarimiz kabi. U anglatadigan ilqlik, o'ziga juda ham yaqin olish ma'nolari publitsistik matn manfaatlariga g'oyatda mos keladi. Masalan: Oqsoqol birodarlarim maqtanayapti demasinlar-u, Xo'ja mahallasida gulchilarimiz 16 gektar yerda gullarning 30 xil ko'chatini yetishtiradilar. Bozorning bir qismida yangi savdo rastalari qurilayotgan bo'lsa, ko'chalarimiz ham tekislanib yangi bunyodkorlik ishlari bajarilayotir. Yangi loyihaning amalga oshirilishi bilan muammolarimiz barham topdi. Vakillarimiz bo'sh kelmadi ("Buxoronoma") singari.

Ommaviy axborot vositalari tiliga xos bo'lgan morfologik xususiyatlar boshqa so'z turkumlarida ham kuzatiladi. Masalan, "Buxoronoma" gazetasi materiallaridan har, hech, hamma komponentli olmoshlar publitsistik matnlarda faol ekanligi kuzatiladi. Masalan: har tomonlama, har qanday, har bir, har yili, har yilgi, har xil, har kuni, har doim, har hafta, har on, har qanday, har qadamda, har tong, har oy, har safar, har gal; hech qanday, hech narsa, hech kim, hech yer, hech bir, hech ham; hamma joyda, hamma gap, hamma narsa, hamma yer, hamma joy kabi.

Ilmiy adabiyotlarda ommaviy axborot vositalari tili uchun hozirgi zamon, yaqin o'tgan zamon, hozirgi-kelasi fe'llarini qo'llash xos ekanligi aytiladi. Ularning biri ikkinchisiga nisbatan faolligi haqida gapirish mushkul. Ammo ma'lum bir janrlar uchun fe'lning ma'lum bir zamon ko'rsatkichlari xoslanganligini aniqlash mumkin. Masalan: "Buxoronoma" gazetasining "Bir jumlada" rubrikasi uchun fe'lning o'tgan – yaqin o'tgan zamon shakli xos: jo'nab ketdi, zarar bilan yakunladi, ish boshladi, majbur bo'ldi, majlis o'z ishini boshladi, ma'lum qildi, navbatdagi bosqichga yo'llanma oldi, namoyish etdi, rasman e'lon qildi, ratifikatsiya qildi, tadbir bo'lib o'tdi, taqdim etdi, taklifni o'rta tashladi, qaror qildi, hayotdan ko'z yumdi kabi.

Axborot xarakteridagi materiallar bayonida sifatdoshning -gan shakli ham ishtirok etib, uning yordamida o'tgan zamon, aniqrog'i, uzoq o'tgan zamon mazmunini ifodalovchi gaplar tuzilgan: Shu tufayli ta'lim muassasalari vaqtincha yopib qo'yilgan. "Nikkei" nashriyotining yozishicha, bunga mazkur mamlakatda uning mahsulotlariga talablarning oshib borayotgani sabab bo'lgan. Mamlakatning Elazig' muzofotida yuz bergan zilzilaning kuchi Rixter shkalasi bo'yicha olti ballni tashkil etgan. Tabiiy ofat oqibatida 50 nafardan ortiq odam halok bo'lgan, qariyb 100 kishi tan jarohati olgan. Hududdagi oltita qishloq vayronaga aylangan ("Xalq so'zi") kabi.

Axborotni uzatish jarayonida fe'lning zamon ko'rsatkichlari ishtirokida shakllangan ushbu gaplar umuman xabarni anglatish nuqtai nazaridan o'zaro farqlanmasa-da, stilistik jihatdan farqlanadi. -di o'tgan zamon qo'shimchasi yordamida ifodalangan, o'tgan zamon ma'nosidagi harakatning bajarilishida (ketdi, yakunladi, boshladi, bo'ldi, qildi, oldi, etdi, o'tdi, tashladi, yumdi) qat'iyat, aniqlik, ishonch ma'nolari mavjud bo'lib, ularning amalga oshishida material muallifi go'yo shaxsan ishtirok etganlik ma'nosi anglashilib turadi.

-gan bilan hosil qilingan fe'llarda (qo'yilgan, bo'lgan, tashkil etgan, olgan, aylangan) esa ishtirok etganlik ma'nosi yo'qoladi. Muallif bayonda passiv hamda neytral pozitsiyani egallaydi va bo'lib o'tgan voqeani hikoya qilib beradi.

Xabarning aniq va lo'nda bo'lishi talabi undagi fe'l ko'rsatkichlarining qo'llanishiga ta'sir ko'rsatishi ham tabiiydir. Zamon ko'rsatkichlari vaqtning bir parchasini ajratib va jarayonnining qachon amalga oshganligi yoki oshishini aniq ko'rsatishga xizmat qiladi. Qiyoslaymiz: musobaqa yakunlandi, g'oliblik uchun o'zaro bellashdi - musobaqa yakunlanadi, g'oliblik uchun o'zaro bellashadi. Shu ma'noda birinchi (ikkinchi va uchinchi) o'rinni qo'lga kiritdi, sportchilarga omad tiladi, deyish mumkin bo'lgani holda, birinchi (ikkinchi va uchinchi) o'rinni qo'lga kiritadi, deyish to'g'ri bo'lmaydi.

Ommaviy axborot vositalari tilida yana shunday holatlar kuzatiladiki, bayon jarayonida fe'lning zamon shakllariga murojaat qilayotganida bir xillik yoki izchillik bo'lmaydi. Fe'lning bir zamon shaklidan ikkinchisiga o'tib

turiladi. “Buxoronoma”ning turli sonlaridan olingan materiallarga murojaat qilamiz. Undagi maqolalarning kesimi tarkibida ifodalangan zamon ko‘rsatgichlarining qo‘llanilish o‘rinlariga diqqatimizni qaratamiz: deymiz, deydilar, havas qilamiz, to‘planishib gurunglashadilar, orzu bo‘lib qolgan, qabul qiladi, o‘rtaga tashlandi, aytili, bahor kelayotir, yordam ko‘rsatar singari fe‘l shakllari ishlatilgan. Ular ikki holatdagina o‘z ma‘nosida, ya‘ni hozirgi va kelasi zamon ma‘nolarida qo‘llangan: o‘rtaga tashlandi, aytili; bahor kelayotir, yordam ko‘rsatar. Ammo qolgan o‘rinlarda ular boshqa zamon ma‘nosini anglatishi bilan o‘zida ma‘lum stilistik ma‘no jilolarini ifodalaydi. Masalan: deymiz, deydilar – kelasi zamon; ammo zamonsizlik – hamma zamonlar ma‘nosida; havas qilamiz, to‘planishib gurunglashadilar – kelasi zamon, ammo o‘tgan va hozirgi zamon ma‘nosida; orzu bo‘lib qolgan – o‘tgan zamon, ammo hozirgi zamon, davom etib kelayotganlik ma‘nosida; qabul qiladi – kelasi zamon, ammo hozirgi zamon, davom etib kelayotganlik ma‘nosida.

Tahlildan shunday xulosa kelib chiqadiki, fe‘l shakllarining noizchil xarakteri bayondagi tarqoqlik bilan emas, balki muayyan stilistik maqsadlar bilan bog‘liq. To‘g‘ri, xat mualliflari “stilistik maqsad” tushunchasidan bexabar bo‘lishlari mumkin. Ammo tilimizda yillar davomida shakllangan va me‘yorlashgan ko‘pma‘nolilik va tagma‘nolilik fe‘llarning bu keltirilgan ko‘rsatkichlari almashinuvida amalga oshganligi uning boy imkoniyatlarining bir ko‘rinishi sifatida baholanadi.

Matndan masalaning yana bir jihatiga aniqlik kiritish mumkin bo‘ladi. Kommunikatsiyaning ommaviy xarakteri matn stilistikasiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda muallif ham, adresat ham ommaviy xarakterga ega. Garchi xatga uch kishining imzosi qo‘yilgan bo‘lsa-da, mualliflar ko‘pchilik nomidan, hamfikrlar nomidan gapirmoqda. Ommaviy axborot vositalarining ko‘pchilik janrlariga bu xususiyat xos.

Ommaviy axborot vositalari tilida biz olmoshi qo‘llanish doirasining yuqoriligi ham shundan kelib chiqadi. Masalan: Bankning bunday qat’iyatini biz ham qo‘llab-quvvatlaymiz. Buni qarangki, bizga qanchalik aql bovar qilmas ish

bo‘lib tuyulmasin bu urinish behuda emas ekan (“Zarafshon”) kabi. Ayni paytda, biz olmoshining men olmoshining o‘rnida qo‘llanishi ham ommaviy axborot vositalari tiliga xos xususiyatdir. Masalan: “Navro‘z – 2010” hududiy ko‘rik-tanlovlari ikki bosqichda bo‘lib o‘tadi, – deydi biz bilan suhbatda viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi boshlig‘i (“Zarafshon”).

Har ikki holatda ham mazkur olmoshning nutqqa ulug‘vorlik, ko‘tarinkilik berayotganligini payqash qiyin bo‘lmaydi.

Aytilganlarga qo‘shimcha sifatida o‘zbek tili publitsistikasining shakllanish bosqichida so‘z yasashning affeksatsiya va kompozitsiya usuliga ko‘proq murojaat qilinganligi, ijtimoiy-siyosiy atamalar, asosan, -chi (terrorchi, qo‘poruvchi), -parast (aqidaparast), -parvar (millatparvar), -xona (devonxona, bojxona), -noma (axborotnoma, ma‘lumotnoma), -dor (hissador), -kor (tadbirkor) qo‘shimchava leksimalari yordamida yasalishini ta’kidlashimiz mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tilimizning morfologik shakllari nutq uslublari doirasida adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda qo‘llaniladi. Ayrim ot, olmosh va fe‘l ko‘rsatkichlarining qisqacha tahlili ularning publitsistik uslubda qo‘llanilishida uslubning janr xusuiyatlaridan kelib chiqib, muayyan chegaralanishlar sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili nutq uslublarida sintaktik kategoriyalarning qo‘llanilishida umumiylikva xususiylilik ma’nolari mavjud. Bu qonuniyat nutq uslublariga ham daxldor. Xususiylilikning namoyon bo‘lishi ommaviy axborot vositalarining janr xususiyatlariga bog‘liq. Shu bilan birga, bu tushunchalar ekstralingvistik omillarga ham bog‘liq bo‘lgan holda radio, televideniya va gazeta-jurnallar tili va bayon uslubi bir-birlaridan farqlanadi. Masalan, radio nutqini olaylik. Soha tadqiqotchilarining radiojurnalistikaga oid ishlarda “uzun jumlar, kirish va ergash gaplarga radio chiday olmaydi”, “ergashgan qo‘shma gaplar radioning dushmani”, singari fikrlarni bayon qilishgan.

Teleradio nutqida og‘zaki nutq xususiyatlari mavjud bo‘lsa-da, kitobiy nutq elementlarining qo‘llanilishi ustunlik qiladi. Lekin kitobiy sintaksisning sifatdosh va ravishdosh qo‘shimchalari, kiritma gaplar kabi til birliklarining qo‘llanishi

nutqda g'alizlikni keltirib chiqarishi mumkinligini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Sintaktik xususiyatlariga ko'ra gazeta va jurnallar tili radio-televideniye tilidan anchagina farq qiladi. Har bir material ustida bemalol o'ylash, kerakli joylarga o'zgartishlar kiritish va tahrir qilish imkoniyati matubot tilining bir qadar mukammal bo'lishiga yordam beradi.

Bu imkoniyatlarni ishga solish gazeta uchun tayyorlangan materialni nomlashdan boshlanadi.

So'roq gaplarning mahsuldor ishlatilishi, ularning murojaat va dialog shaklida bo'lishi, bunda savol beruvchi ham, javob beruvchi ham muallifning o'zi hisoblanishi: G'urur nima o'zi? Rangi qanaqa? U hammada birday bo'ladimi yoki aksinchami? Menimcha, g'ururli odam mamlakat miqiyosida amalga oshirilayotgan har qanday muvaffaqiyatni o'ziga tegishli deb biladi va undan quvonadi ("Xalq so'zi").

Uyushiq bo'lakli gaplarga ko'proq murojaat qilinishi: Chunki o'qituvchi zoti mashaqqatli mehnati, hayotiy tajribasi, beqiyos mehri bilan yosh avlodga faqat ilm-fan sirlarini o'rgatib qolmay, uning yuragida Vatanga muhabbat, ajdodlar ruhiga hurmat, el-yurtga sadoqat kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishda ibrat va namuna bo'ladi ("Xalq so'zi"), undovlarning, kirish bo'laklar va kirish gaplarning: Vaholanki, ular o'z mutaxassisligi bo'yicha qayerga joylashishni bilmay yurishgandi. Albatta, bu bilan muammo bartaraf etildi, deb aytish noto'g'ri bo'lar edi ("Xalq so'zi") bilan yoki shaxsi umumlashgan gaplarning keng qo'llanishi bilan ajralib turadi.

Gazeta matnlaridagi axborot xarakteridagi materiallarning sarlavhalari, asosan, darak mazmunida bo'ladi: Viloyat kegashi sessiyasi, Senatorlar saylandi, Hududiy dastur qabul qilindi, Vazifalar belgilab olindi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida ("Buxoronoma"). Ularda tasviriylik bo'lmaydi.

Buyuk shoirga ehtirom, Sinovlarda toblangan iroda, Mehnatdan qadr topgan muallim, Muallimlarning muallimi, Yigit omon bo'lsa... singari sarlavhalarda ham

buyuk, ehtirom, toblanmoq, qadr soʻzlari hamda qiyoslash va koʻp nuqta tufayli tasviriylilik vujudga kelgan. Ayrim sarlavhalar subyektiv munosabat mazmunida boʻladi: Nolish emas, gʻururlanish kerak. Muammoni oqilona hal qilish kerak. Undov gapli sarlavhalar ham daʼvat xarakterida boʻladi: Yordamga qoʻlingni choʻz! Temir yoʻldan ehtiyot boʻling!

Keyingi paytlarda gazetalarning oʻqimishlilikini oshirish maqsadida jurnalistlar turli usullardan foydalanmoqdalar. Bu holat sarlavhalarda ham kuzatiladi. Masalan, maqolaning birinchi gapidan sarlavha sifatida foydalanilmoqda. Gapning bir qismi bir shriftda katta qilib, ikkinchisi boshqa shriftda undan kichik qilib yozilmoqda: Baxt – unga intilib yashashda deydi shifokor Abduhalim Ashurov. Yurtga xizmat fidoiylkdir deydi iqtidorli pedagog-muhandis Erkin Saidmurodov. Inson hayoti – oliy qadriyat bu huquq bosh qomusimizda belgilab qoʻyilgan, “Birni koʻrib fikr qil, birni koʻrib shukur qil” safar chogʻida bu naqlning nechogʻlik toʻgʻriligiga ishonch xosil qildik kabi.

Matn boshida muhim bir fikrni keltirish ham hozir odat tusiga kirib bormoqda. Alohida shriftda yozilgan bu kichik matn asosiy matnning mazmuni hisoblanadi va oʻquvchini qiziqtiradigan, diqqatini materialga jalb qila oladigan vositaga aylanadi. Uni oʻqib oʻquvchi oʻqishni davom ettirish yoki ettirmaslik haqida xulosaga keladi. Masalan: Ishonch yorligʻi topshirildi. Oʻzbekiston Respublikasining Belgiya Qirolligidagi Favqulodda va muxtor elchisi Baxtiyor Gʻulomov ushbu mamlakat qiroli Albert II ga ishonch yorligʻini topshirdi (“Xalq soʻzi”).

Shu oʻrinda, yuqorida nomi keltirilgan maqolamizni grammatik xususiyatlarga oid qismini keltiramiz.

Grammatik vositalardan unumli va oʻrinli foydalanish bilan birga, keyingi paytlarda barcha gazetalarda kuzatilayotgan, quyidagi grammatik meʼyorlardan oʻrinli foydalanishga amal qilmaslik koʻzga tashlanadi. Ularni quyidagicha tasnifladik:

1. Morfologik meʼyorlar:

- kelishik qoʻshimchalarini farqlamaslik;
- kelishiklardagi belgili va belgisizlikni nooʻrin qoʻllash;

- soʻz yasovchi qoʻshimchalar, feʼl nisbatlarini qoʻllash yoki qoʻllamaslik bilan bogʻliq meʼyorlar.

2. Sintaktik meʼyorlar:

- soʻz va gaplarning mantiqiy bogʻlanishi;
- jumla tuzishda soʻz va birikmalar, iboralarni oʻz oʻrnida ishlatmaslik;
- jumlani shakllantirishda faqat badiiy vositalardan foydalanib, fikrning aniqligiga putur yetkazish;
- gap tartibi – odatdagi holat va inversiya qoidalariga rioya qilish va boshqalar.

3. Tinish belgilarni ishlatishda normaga rioya qilish.

Mavjud qoidalar asosida ocherklarni tahlil qilar ekanmiz, eng koʻp meʼyorga amal qilmaslik kelishik qoʻshimchalari bilan bogʻliq. Masalan, Matbuotimiz matnlarida uchrayotgan xatoliklarning ayrimlarini misol tariqasida keltiramiz: *“Alisherni qoʻshiqlarini tinglaganlar, u haqida ijobiy fikr bildirib kelardi, ammo...”* jumlasida *“Alisherni qoʻshiqlarini”* emas, balki *“Alisherning qoʻshiqlarini”* shaklida boʻlishi kerakligini va bu xato sheva bilan bogʻliqligini taʼkidlash mumkin.

“Mehmonxonaning kutish zalida Alisherni 20 daqiqacha vaqt davomida kutib turdim” jumlasida *–cha* qoʻshimchasi yoki *“vaqt davomida”* birikmasi ortiqcha qoʻllangan boʻlib, jumlani *“Mehmonxona kutish zalida Alisherni 20 daqiqa kutib turdim”* shaklida qoʻllash mumkin edi. Matbuot tilida uchrayotgan bunday xato va kamchiliklar birinchi navbatda kishini soʻz qoʻllashda koʻzda tutgan maqsadini aniq ifodalanmaslikni yuzaga keltirsa, ikkinchidan gʻaliz jumlarlar, gazetxonning mutoala jarayonida tushunmaslik holatini yuzaga keltiradi.

Ocherk janrida grammatik vositalarning, xususan, kelishik qoʻshimchalarining belgili va belgisiz qoʻllanishi, soʻz birikmalarining ishlatilishi, gaplarning uslubiy xususiyatlaridan foydalanish alohida jihatlariga ega.

Hozirda davrda respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazishda, mustaqil yurtimizni rivojlantirishga, farovon va adolatli jamiyat qurishga beqiyos

hissa qo'shayotgan zamondoshlarimiz qiyofasini yaratish va ular timsolida davr qahramonlarini kashf etishda ocherk janri muhim rol o'ynaydi.

Haqiqatdan ham, mana shunday janrlarning kamol topishi natijasida, televideniye va radio oraqali uzatiladigan eshittirishlar, vaqtli matbuotda beriladigan materiallar zamonaviy texnik vositalar tufayli standartlashib, me'yorlashib, ularni ommaga yetkazish tobora osonlashib bormoqda. Elektron ommaviy axborot vositalari esa ommaviy kommunikatsiyaning alohida usuli sifatida hayotimizga kirib keldi.

Mustaqillik davri ommaviy axborot vositalari va matbuoti materiallari mazmunan o'zgardi. Unda o'zbek xalqining turmush tarzi va ruhiyati o'z aksini to'laligicha topmoqda. Matbuot erkinligi, yoritiluvchi mavzular ko'lamining kengligi ommaviy axborot vositalarida tildan foydalanish imkoniyatlariga keng yo'l ochib berilmoqda.

XULOSA

Ommaviy axborot vositalari jamiyatning ko'zgusi hisoblanadi. Sababi, bugungi hayotimizni matbuotsiz tasavvur qilish qiyin. XXI asrning "axborot asri" deb nomlanayotgani ham fikrimizning yaqqol isbotidir. Ommaviy axborot vositalari, jumladan, gazeta tilini o'rganish har doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki, gazeta tilini tadqiq qilish adabiy tilni o'rganish va uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning muhim omilidir.

Publitsistik uslub va uning janrlari, lingvistik xususiyatlariga oid tadqiqotlar gazeta materiallari asosida yetarlicha o'rganilgan. Shu tadqiqotlarning natijasi sifatida monografiya va dissertatsiyalar himoya qilingan. Mazkur ishdagi izlanishlar "Xalq so'zi", "Buxoronoma" gazetalarining leksik, grammatik xususiyatlari misolida olib borildi.

O'zbek tili o'zining ko'plab imkoniyatlari, ichki tuzilishlari bilan boshqa tillardan farq qiladi. Unda leksik va grammatik ma'no nozikliklar hamda uslubiy imkoniyatlarning ko'lami juda kengdir.

Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi, voqelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir. Uning imkoniyatlarini barcha uslublarda turli jilolarda uchratamiz. Bu esa har bir uslub o'zining til qurilishi, me'yoriy ko'rinishlariga egaligidan dalolat beradi. Sababi, me'yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir.

O'zbek tilida nutq uslublari o'zining vazifasi, qo'llanish o'rni, ifoda materiali bilan bir-biridan farqlanadi. Barcha til imkoniyatlaridan birday foydalanish jihatida uning umumiy xususiyati bo'lsa, har bir uslubning maqsadi, vazifasi jihatidan farqlanishi uning xususiy jihatida sanaladi.

Nutq uslublari orasida publitsistik uslubning til xususiyatlari bizgacha ko'plab tadqiqotchilarni o'ziga jalb etgan. Ommaviy axborot vositalari,

jumladan, vaqtli matbuot: gazeta va jurnallar hamda radio va televideniye mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida shu qadar muhim rol o'ynamoqdaki, axborot texnologiyalari asrining bugungi taraqqiyotini ularning aralashuvchisiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimiz hayotida, butun dunyoda ro'y berayotgan har qanday dolzarb muammo: siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, madaniy, tarbiyaviy, kundalik-maishiy va boshqa masalalar ana shu vositalar yordamida xalqqa yetkazib berilmoqda. Ayni paytda, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yuksalishiga qaratilgan ulkan targ'ibot va tashviqot ishlari ham asosan ana shu vositalar yordamida olib borilmoqda.

Axborot uzatish va ta'sir etish imkoniyati gazetada boshqa publitsistik janrlarga nisbatan keng, deb aytish mumkin. Chunki gazetada beriladigan materiallarni avvaldan tayyorlash, qo'llaniladigan har bir til birligi ustida shoshmasdan mulohaza yuritish uchun vaqt va sharoit mavjud. Mana shunday sharoitda o'quvchiga axborotni eng qisqa jummalarda, tushunarli qilib, ayni paytda, ta'sirli qilib yetkaza oladigan til elementlari tanlanadi, qayta ko'riladi, tahrir qilinadi. Boshqacha aytganda, lingvistik va ekstralingvistik omillar mana shu nuqtada birlashadi. Materialga jurnalistik jilo berishga intilish oqibatida ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, gazeta tilida ko'p so'zlar o'zining yangi ma'nolariga ega bo'ladi, shundan so'ng ommalashadi va lug'atlardan joy oladi.

Publitsistik uslubning janrlar orasida feleton gazeta janrlari orasida eng o'qimishli va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan janrdir. Publitsistik o'zining ko'plab ma'no qirralarini mana shunday janrlar misolida aks ettiradi. Masalan: feletonlarda varvarizm, jargonlar, shevaga xos elementlar va vulgarizmlardan keng foydalaniladi. Bu noadabiy qatlam birliklari tilimizning madaniylik darajasini belgilovchi omillardan biridir. Matbuotning birlamchi xususiyatlaridan biri o'quvchilar auditoriyasida savodxonlik va ma'rifiylikni targ'ib qilish ekanligini inobatga olsak, bunday birliklardan foydalanish ommaviy axborot vositalari tiliga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo bunday noadabiy qatlam birliklari satira orqali tanqid qilinganda obyektning qiyofasini to'la tasavvur qilishda keng imkoniyat yaratiladi.

Davlat va nodavlat gazetalarda bosilgan ko‘plab tanqidiy materiallar felyetonbop hisoblanadi. Lekin ularni janr talablariga ko‘ra qayta ishlab, “Feleton” rukni ostida nashr etish mumkin. Bu bilan tanqidning ta’sir kuchi yanada oshadi.

Umuman, publitsistik janrlar ommaviy axborot vositalarida keng iste’molda bo‘lgan turlardan biridir. Ushbu janrda til uslublarining barchasiga tegishli birliklar, jumladan, ijtimoiy-siyosiy leksika, rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublar imkoniyatlaridan o‘rni bilan foydalanilgan.

Mazkur uslubda ko‘plab janrlar singari ocherk janri ham mavjud bo‘lib, unda ham feleton janri kabi til imkoniyatlari turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan: ocherkning turlaridan sud ocherkining faol qo‘llanishi jamiyatdagi talablar bilan bog‘liq. Ijtimoiy hayotdagi demokratik jarayonlar, avvalo, matbouda aks etadi. Xususan, sud jarayonining ochiqligi ham demokratiya talablari bilan bog‘liq. Sudning ochiqligi sud ocherklari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur janrga xos matnlar tarkibida badiiylikni ta’minlash uchun badiiy til unsurlari: ko‘chimlar, emotsional-ekspressiv birliklar va iboralardan foydalanish bilan birga rasmiy-idoraviy uslublarga xos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy birliklardan ham keng foydalaniladi. Bu holat turli qonun, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va talablar bilan bog‘liq bo‘lib, sud jarayonini to‘la aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, publitsistik uslubning barcha janrlari yurtimizda bo‘layotgan islohatlar, qonun loyihalarining olib borilishi va jamiyatimizdagi turli illatlardan xalqni xabardor qilish vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008, 83-б.
2. Каримов И.А. Сўз боши. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Т.: Ўзбекистон, 2000.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида”ги Қонуни 1993 йил 2 сентябрь

Monografiya va alohida nashrlar:

4. Абдусаидов А. Газета тили ва адабий норма. Монография. Самарқанд, 1986, 199 б.
5. Бегматов Э. Адабий талаффуз маданияти. Тошкент, “Фан”, 1982, 211 б.
6. Бегматов Э, Маматов А. Адабий норма назарияси, 1-қисм – Тошкент, 1997, 56-б.
7. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. Тошкент, 1972, 48-б.
8. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби.- Самарқанд, 1992, 77-96-б.
9. Каримов С. Тил таълими ва меёри. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2002, 135 б.
10. Каримов С, Жўраев Т. Ўзбек тили услубияти ва нутқи маданияти. Библиографик кўрсаткич. – Самарқанд, 2001, 211 б.
11. Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари.- Тошкент, 1991, 121-122-б.
12. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент, 1984, 17-б.
13. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, 1995, 9-б.
14. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 7-б.

15. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981, 20-б.
16. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий лексикаси. Тошкент, “Фан”, 1978, 169 б.
17. Усмонова Ў. Талаффуз ҳақида. Тошкент, “Фан”, 1972 83 б.
18. Усмонова Ў. Талаффуз маданияти. Тошкент, “Фан”, 1976, 97 б.
19. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Тошкент, 1993, 31-б.
20. Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 75-228-б.
21. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Тошкент, 1996, 22-б.
22. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1981, 11-12-б.
23. Ўзбек тили грамматикаси, 1 том – Тошкент, 1975, 187-б.
24. Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. –Тошкент: Фан, 1975, 77-б.
25. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент, 1991, 72-б.
26. Қўнғуров Р, Каримов С. Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Библиографик кўрсаткич. – Самарқанд, 1984 219 б.
27. Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари, 1-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1985, 38-40-б.

Ilmiy maqolalar va tezislar:

28. Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985, 2-сон, 45-51-б.
29. Абдуллаев М. Маънавий ва иқтисодий тафаккур // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2000 йил 28 июль.
30. Абдуллаев Ф. Ўзбек миллий адабий тили ва уни ўрганишга оид масалалар // “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. –Тошкент, 1973, 43-бет.

31. Абдурахмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, 6-сон, 66-71-б.

32. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек адабий тилининг стилистик нормалари. “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. – Тошкент, 1973, 128-134-б.

33. Алиев А. Ўзбекистон жумҳуриятининг давлат тили ҳақидаги қонун ва ўзбек тили нутқ маданияти // “Ўзбек нутқи маданиятининг долзарб муаммолари” тўплами. – Тошкент, 1990, 8-б.

34. Асқарова М. Республика мактабларида она тили ўқитиши ва нутқ маданияти. “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. – Тошкент: Фан, 1973, 75-б.

35. Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. – Тошкент: Фан, 1973, 168-б.

36. Бегматов Э. Ўзбек нутқи маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 4-сон, 58-бет.

37. Бердиалиев А. Сўз ва атамалар ҳосил қилишнинг баъзи назарий масалаларига доир // “Давлат тили ҳақида”ги Қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси тезислари. – Навоий, 1993, 23-б.

38. Дониёров Х. Фонетик стилистикага оид баъзи мулоҳазалар // “Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар” тўплами. – Самарқанд, 1983, 142-148-б.

39. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг нутқ маданиятига оид масалалар // “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. – Тошкент, 1973, 31-б.

40. Мамажонов А., Мамажонova У. Ўқувчиларга стилистик норма қоидаларини ўргатиш // СМ. 1988, 3-сон,

41. Маматов А. Окказионал сўзлар ва тил нормаси // “Ўзбек нутқининг актуал проблемалари” тўплами. – Тошкент, 1990, 152-158-б.

42. Маматов А. Ёш авлоднинг нутқий маданиятини тарбиялаш хусусида // Давлат тили ҳақидаги қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари

мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси тезислари. - Навоий, 1993, 7-б.

43. Маҳмудов А. Тилнинг фонетик ва лексик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963, 6-сон.

44. Отамирзаева С. Ўзлаштирилган сўзлар орфоэпиясига доир баъзи масалалар//“Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. Тошкент, 1973, 96-б.

45. Содиқова М. Талаффуз равонлиги – нутқ бойлиги // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998 йил 16 январь.

46. Тошалиев И. Стилистик норма муаммолари // (Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 5-сон.

47. Тошалиев И. Стилистик норма ва унинг асосий белгилари //Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, 2-сон.

48. Усмонова Ў. Талаффуз нормаларини белгилаш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 6-сон.

49. Узоқов Ҳ. Ўзаро муомала ва орфоэпик нормалар // ТошДУ илмий асарлари, № 586 – Тошкент, 1979

50. Шарафиддинов Ҳ. Поэтик фонетика // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 2-сон, 78-82-б.

51. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тилининг лексик нормалари // “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами – Тошкент: Фан, 1973, 51-б.

52. Қиличев Э., Яхшиева Г. Фонографик стилистика. “Ўзбек тилини синхрон ўрганиш масалалари” тўплами.-Тошкент, 1987, 69-б.

53. Ғуломов А. Адабий тил нормалари // “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами.-Тошкент, 1973, 29-33-б.

54. Ғуломов А. Фонетик вариантлар ва адабий нормалар // Ўзбек тилининг морфем луғати. – Тошкент, 1977, 366-б.

55. Ҳамдамов Ж. Тилимизнинг юксак маданияти учун // “Нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. – Тошкент: Фан, 1973, 97-100-б.

MUNDARIJA:

1. Reja:	3
2. Ishning umumiy tavsifi.	4
3. I BOB. TIL VA USLUB MUAMMOSI.	
1.1. Tilda me'yor va uslub.	9
4. Uslub va uning turlari.	21
5. II BOB. PUBLITSISTIK USLUB VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.	
Publitsistik uslubning o'rganilishi.	35
6. Publitsistik uslubning jamiyat hayotidagi ahamiyati	44
7. III BOB. PUBLITSISTIK USLUB (GAZETA TILI)NING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.	
Publitsistik uslub (gazeta tili)ning leksik xususiyatlari.	55
8. Publitsistik uslub (gazeta tili)ning grammatik xususiyatlari.	68
9. Xulosa.	77
10. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	80